

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ prof. Meliev X.A.

“ _____ ” _____ 2013 y.

5140900 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

**“Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning
psixologik jihatlarini”**

mavzusida bajarilgan

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Bajaruvchi: To'xtaeva Lobar
Saydullaevna

Ilmiy rahbar: kat.o'qit.M.Qodirova

Ishni himoyaga tavsiya etaman

katta o'qituvchi M.Qodirova _____

(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI “Pedagogika va psixologiya”

Kafedra 10- sonli yig'ilish qarori bilan
(28.05.2013 y) himoyaga tavsiya etilgan

Kafedra mudiri v/b: kat.o'qit.

M.Qodirova

(ismi va sharifi) (imzo)

Jizzax – 2014

Mundarija

KIRISH

I-BOB. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan faoliyatning psixologik mohiyati.

- 1.1. Voyaga yetmagan o'smirlar xulqi motivatsiyasi.
- 1.2. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni.
- 1.3. Voyaga yetmaganlarning xuquqbuzarliklari hamda ularning asosiy sabablari.

II-BOB. Voyaga yetmagan o'smirlar xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash – psixologik muammo sifatida.

- 2.1. Voyaga yetmagan o'smirlar jinoyatchiligi muammosining psixologik jihatlari
- 2.2. Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda oila, mahalla, maktab hamkorligi masalalari.
- 2.3. O'smirlik davriga xos depressiv xulqning psixodiagnostik muammolari

Tajriba-sinov natijalari.

Xulosa.

Ilovalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillikning ilk yillaridan davlatimiz rahbariyati o'smir yoshlarning har tomonlama etuk, sog'lom va kamol toptirishga e'tiborini qaratdi. Shu o'rinda xuquq-targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga e'tibor qaratdilar. Bunday dolzarb muammoni hal qilishda respublikamiz psixologlari ham bir qator amaliy ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Biz ham o'z tadqiqotimizda voyaga etmagan o'smirlarning xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunda biz o'smirlar tarbiyasidagi salbiy og'ishga olib keluvchi omillar va ushbu omillarga nisbatan ularning ijobiy hamda salbiy javoblarini o'rganamiz. Chunki inson umri o'rganilgan sari, undagi ko'pgina yangidan-yangi ma'lumotlar aniqlanaveradi. Shu sabab o'smirlardagi o'zgaruvchanlik xususiyati psixologlar oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda.¹

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi va bevosita rahnamoligida voyaga etmaganlar va yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi voyaga etmaganlar va yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat.²

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e'tibor kuchaytirilgan.

Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar xuquqlari davlat himoyasida ekani belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunning 64-moddasida esa ota-

¹ Karimov I.A., O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiy kafolatlari - T. O'zbekiston, 1997 — 252 — b.

² Karimov I.A., Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori - T.Sharq, 1998 y.

onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekani, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalari vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi bolalarga yo'naltirilgan hayriya faoliyatini rag'batlantirishi qayd etilgan.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu boradagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Dastlabki bosqich 1991-2000 yillarni o'z ichiga olib, mazkur bosqichda voyaga yetmaganlar va yoshlarni yagona mafkura asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi va uning xuquqiy asoslari tugatilib, ularni tarbiyalash, xuquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning demokratik asoslari yaratildi. Ikkinchi bosqich 2001-2007 yillarni o'z ichiga olib, mazkur bosqichda voyaga yetmaganlar o'rtasidagi tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, buning uchun mas'ul davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga, shuningdek, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy va iqtisodiy yangilanish jarayonida yoshlarning o'z o'nini topishga ko'maklashish, ish bilan ta'minlash, sport bilan shug'ullanishga sharoit yaratish hamda xuquqiy svodhonligini oshirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Ushbu davrda voyaga etmaganlar va yoshlar xuquqlarini himoya qilishning xuquqiy mexanizmlarini yaratish maqsadida yosh iste'dolar uchun "Nihol" mukofoti (2006), "Kelajak ovozi" respublika tanlovi (2006) ta'sis etildi, "Voyaga etmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oila tarbiyasiga olish (patronat) to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (2007), shuningdek "O'zbekistonda bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Harakat dasturi" (2007) tasdiqlandi. Prezidentimizning 2006 yil 10 oktabrdagi qaroriga asosan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga asos solindi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Voyaga yetmagan o'smirlarning psixologik jihatlarini qarab chiqadigan bo'lsak, ularning hayotida ko'plab noxushliklar bo'lishiga amin bo'lamiz. Bunday noxushliklar sababi nimada

aslida? Ularning hayotidagi muammolarga sabab nima? Nima uchun bunday muammolarning oldini olinsada o'smir hayotida ba'zi hollarda iz qoldiradi? Bunday savollarni ko'plab berish mumkin. Eng yomoni o'smirning tarbiyasidagi og'ishlar natijasida jinoiy ishlarga aralashib qolishi, hatto jinoiy ishga qo'l urishidir. Bunday muammolarni echish chinakamiga katta mehnatni talab qiladi. Bu boradagi tarbiyaviy ishlarda keng qamrovli hamkorlik ishlarini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Inson taraqqiy etgani bu muammo psixologik muammo ekanligini ilmiy tadqiq etish ishlari ortib bormoqda. Ishimizning mavzusiga oid ilmiy tadqiqot ishlariga nazar solgudek bo'lsak, bu yo'nalishdagi muammolarni psixologlardan E.G'oziev, M.Davletshin, M.Vohidov, V.Karimova, N.Safoev, F.Haydarov va boshqalar o'z ishlarida voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini yoritib berishga harakat qilganlar.

Olimlar olib borgan tadqiqotlarga asoslanib voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishga mo'ljallangan psixodiagnostik metodikalar, testlar ishlab chiqilgan. Jumladan, N.Komilova, M.Davletshin, Sh.Do'stmuhamedova, L.Nazirova kabilar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar va testlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu testlar va metodikalardan hozirgi vaqtda keng foydalanilmoqda.

Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganish borasida respublikamiz psixologlari tomonidan ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.Davletshin, E.G'oziev, M.Vohidov, V.Karimova, N.Safoev, F.Haydarov, Sh.Do'stmuhamedova, L.Nazirova, N.Komilova kabi olimlar tomonidan o'smir psixologiyasi, voyaga yetmaganlar psixologiyasi, o'smirlar xulq-atvorining o'ziga xosligi, o'smirlardagi og'ishlar, tarbiyasi og'ir o'smirlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, o'smirlar xulq-atvorini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar respublikamizda voyaga yetmaganlar bilan ishlashning ko'pgina jihatlarini tadqiq etish bo'yicha o'ziga xos jixatlarning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shularga asosan hozirgi kunda voyaga

yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishga oid ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ushbu muammoni o'rganishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorida salbiy o'zgarishlarga qaratilgan muammolar ko'plab uchramoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Mavzuning ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kirishi va uni o'rganilganligining yuqorida keltirib o'tilgan holati bizga o'z tadqiqot ishimizda voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini tadqiq etishni maqsad qilib tanlab olishimizga asos bo'ldi.

Tadqiqotning predmeti: Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirish psixologik muammo ekanligini aniqlash va olingan ilmiy xulosalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti: Voyaga yetmagan o'smirlar.

Tadqiqot vazifalari: tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- tadqiqotimiz muammosidan kelib chiqqan holda mavjud ilmiy xulosalar qilish;
- Voyaga yetmagan o'smirlar xulqi motivatsiyasini o'rganish;
- Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmunini o'rganish;
- Voyaga yetmaganlarning xuquqbuzarliklari hamda ularning asosiy sabablarini o'rganish;
- Voyaga yetmagan o'smirlar jinoyatchiligi muammosining psixologik jihatlarini o'rganish;
- Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda oila, mahalla, maktab hamkorligi masalalarini o'rganish;
- O'smirlik davriga xos depressiv xulqning psixodiagnostik muammolarini o'rganish kabi masalalarini o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi bo'lib, pedagogik va psixologik manbalar xizmat qildi.

Tadqiqotning metodlari: kuzatish, eksperiment, suxbat va testlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

- Voyaga yetmagan o'smirlar xulqi motivatsiyasi bilan bog'liq;
- Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni bilan bog'liq;
- Voyaga yetmaganlarning xuquqbuzarliklari hamda ularning asosiy sabablarini o'rganish bilan bog'liq;
- Voyaga yetmagan o'smirlar jinoyatchiligi muammosining psixologik jihatlarini o'rganish bilan bog'liq;
- Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda oila, mahalla, maktab hamkorligi masalalarini o'rganish bilan bog'liq;
- O'smirlik davriga xos depressiv xulqning psixodiagnostik muammolarini o'rganish bilan bog'liq.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini pedagoglar, psixologlar tomonidan o'rganilayotganiga qaramasdan, bunday o'smirlar xulq-atvorini o'rganish psixologik muammo bo'lib qolmoqda.
2. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini psixologik muammo ekanligi yuzasidan etarli manba mavjud emas.
3. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorining o'zgarishiga olib keluvchi turli ta'sirlarni ochib berish.
4. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning turli usullarini ochib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganildi. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorining o'zgarishi ularning holati, o'smirlar psixikasining normal rivojiga bog'liqligi, atrofdagi voqealarning ta'siri hamda insonning xarakter xususiyatlari bilan bog'liqligi tadqiq etildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: bitiruv ishidagi o`rganilgan adabiyotlar, ilmiy to`plamlar, maqolalar va turli manbalar tahlili, o`rganilgan nazariy g`oyalar va ishlab chiqilgan xulosalar nazariy bilimni yanada boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa voyaga etmaganlar xula-atvori psixologik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar bilan bog`liqligi muammosi e`tiborga loyiqdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Voyaga yetmaganlarning xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlari muammo ekanligi yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar har qanday yoshdagi insonlar, ota-onalar, turli kasb egalari uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi va hajmi: bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 6 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, ilovalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I-BOB. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan faoliyatning psixologik mohiyati.

1.1. Voyaga yetmagan o'smirlar xulqi motivatsiyasi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi va bevosita rahnamoligida voyaga etmaganlar va yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlar va yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqarsih uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratishhamda ularni kafolatlashdan iborat.

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 gacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafari yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 18 yoshgacha bo'lgan davrda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu ma'noda, mamlakatimizda voyaga etmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishga davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida jiddiy e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. Xususan, O'zbekistonning yosh fuqarolari konstitutsiya va qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklardan to'liq foydalanadilar. Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ularning yoshiga qarab bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishga yo'l qo'yilmaydi va bunday hatti-harakatlar amaldagi qonunlarga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyaga etmaganlar huquqlari davlat himoyasida ekani belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunimizning 64-moddasida esa ota-onalar o'z farzandlari voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekani, davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalari vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi bolalarga yo'naltirilgan xayriya faoliyatini rag'batlantirishi qayd etilgan. Konstitutsiyaning

65-moddasida farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muxofaza qilinishi mustahkamlangan.

“Oilada xavas qilsa arziydigan muhitni yaratishda birinchi navbatda mahalla ta'sirchan kuchga ega bo'lishi kerak. Ochiq aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda bu unchalik sezilmayapti.

Mahalla faqat oilalarda yaxshi muhitni yaratish bilan cheklanib qolmay, qaynona, qayotalar bilan ham mintazam ish olib borishi zarur”, - deydi Prezidentimiz¹.

Davlatimiz tashabbusi bilan bu boradagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik davridagi tarixiy rivojlanishdan kelib chiqib, ularni shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin.

Dastlabki bosqich-1991-200-yillar mazkur bosqichda voyaga yetmaganlar va yoshlarni yagona mafkura asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi eski ma'muriy – buyruqbozlik tizimi va uning huquqiy asoslari tugatilib, ularni tarbiyalash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning demokratik asoslari yaratildi.

Ikkinchi bosqich – 2001 – 2007 – yillar. Mazkur bosqichda voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, buning uchun mas'ul davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga, shuningdek, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy va iqtisodiy yangilanish jarayonida yoshlarning o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, birinchi navbatda, qishloq joylardagi yigit-qizlarni ish bilan ta'minlash, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratish, farzandlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu davrda voyaga etmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yaratish maqsadida yosh iste'dodlar uchun “Nihol” mukofoti (2006), “Kelajak ovozi” respublika tanlovi (2006) ta'sis etildi, “Voyaga

¹ I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2000, 8-tom, 440-441-betlar.

etmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (2007), shuningdek, "O'zbekistonda bolalar faravonligini ta'minlash bo'yicha Harakat dasturi" (2007) tasdiqlandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov; "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini angladigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni atbiyalash imkoniga ega bo'lamiz" deb ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" orqali shaxs tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda².

O'zbekiston Prezidentining 2006 yil 10 oktyabrdagi qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ma'naviy-ma'rifiy sohaga daxldor vazirlik va idoralar tomonidan yoshlarning dolzarb muammolarini echish, jamiyatdagi o'rni va mavqieni oshirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish, eng asosiysi, yosh avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bu borada "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga tayanish mazkur davlat tashkilotlari faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Shudan kelib chiqib, Adliya vazirligi voyaga etmaganlar va yoshlar masalalari bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirmoqda:

1) qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;

2) insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarni har tomonlama rivojlantirish, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

3) davlat organlarining jamiyatda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylarni mustahkamlashga yo'naltirilgan faoliyatini muvofiqlashtirish;

² O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.

4) sud va boshqa davlat organlari hujjatlari ijrosini ta'minlashning samarali mexanizmini yaratish;

5) notarial, advokatura, FXDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatini tartibga solish va ularning samaradorligini oshirish;

6) zamonaviy talablar va standartlarni hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Bu sohada erishilgan yutuqlarni e'tirof etgan holda voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish sohasida quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- birinchidan, voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan hujjatlarni inventarizatsiyadan o'tkazib, ularning o'zaro muvofiqlashgan yagona bazasini shakllantirish, zamon talabidan kelib chiqib, ko'pgina yangi qonunlarni, xususan "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunning yangi taxririni qabul qilish;

- ikkinchidan, O'zbekiston Prezidenti asarlarida voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar qonun hujjatlarida o'z ifodasini topishini monitoring qilish;

- uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 10 oktyabrda qaroriga asoslanib, yoshlar masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish;

- to'rtinchidan, voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va ta'sirini kuchaytirish;

- beshinchidan, voyaga yetmaganlar huquqini buzgan shaxslar javobgarligini kuchaytirish;

- oltinchidan, bu sohada ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- ettinchidan, voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishni qonun bilan tartibga solish borasida boshqa davlatlar tajribasini o'rganish;

- sakkizinchidan, voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha doimiy ravishda jamoatchilik fikrini o'rganishni tashkil etish.

Umuman, yoshlarga va voyaga yetmaganlarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik ularning barkamolligini ta'minlash bilan bir qatorda, Vatanimizning iqtisodiy, siyosiy, intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.¹

Voyaga etmaganlarda xulq og'ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o'rtasidagi murakkab bog'lanishli jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda o'smir shaxsi sub'ekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Ob'ekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga ta'sir etuvchi element sifatida ifodalanadi. Sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar mutanosibligini ta'minlash esa voyaga etmaganlarda xulq og'ishi kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi.

O'smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o'ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba'zan shaxsning sog'lom munosabatlari va sog'lom turmush tarzini belgilasa, ba'zan esa nosog'lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o'smirlarda g'ayriqonuniy xulq-atvor kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta'sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Bu esa profilaktik tadbirlarni o'smirning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borishini taqazo qiladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta'sirchanligi, eng avvalo, o'smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg'ulotlar voyaga etmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, psixologlar va pedagoglar tomonidan moslashmagan xulqning oldini olishga qaratilgan bir qator tavsiyalar,

¹ I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2000, 8-tom, 440-441-betlar.

maslahatlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi E.A.Gorshkova tarbiyasi qiyin o`smirlarning sinf jamoasi bilan bo`ladigan munosabatlarini sog`lomlashtirish voyaga yetmaganlar o`rtasida jinoyatchilik xulqining oldini olishda muhim omil sifatida o`rin tutadi, deb ta`kidlaydi va quyidagi psixologik-pedagogik tavsiyalarni o`rtaga tashlaydi:

1. Tarbiyasi qiyin o`smirlarning sinf jamoasidagi o`rni va uning sinfdoshlar, atrofdagilar bilan bo`lgan munosabatlarini sog`lomlashtirish.

2. Tarbiyasi qiyin o`smirlarning shaxs xususiyatlarini har tomonlama o`rganish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda ijobiy shaxs sifatlarini shakllantirishga erishish.

3. Tarbiyasi qiyin o`smirlarning sinf va maktab jamoasidan izolyatsiyalanishi (ajralib qolishlik) ning oldini olish tadbirlarini o`z vaqtida amalga oshirish.

4. Tarbiyasi qiyin o`smirlarni qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib sinfda va sinfdan tashqarida o`tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish.

5. Sinf jamoasi a`zolarida sog`lom psixologik munosabat hissini shakllantirish.

6. Sinf va maktab jamoasida tarbiyasi qiyin o`smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini yuzaga keltirish.

7. Tarbiyasi qiyin bolalar va o`smirlarning ustun shaxs xislatlari, jismoniy barkamolligidan kelib chiqib, ulardan oqilona foydalanishni yo`lga qo`yish, ya`ni sinfdan tashqari ishlarda ularga sardorlik, boshqaruvchilik ishlarini topshirish mumkin. Bu orqali o`smirda o`z-o`ziga nisbatan bo`lgan ishonchini orttirish, ijtimoiy voqea-hodisalarga nisbatan bo`lgan munosabatini o`zgartirishga erishish mumkin.

Bulardan ko`rinadiki, shaxs xulqidagi ogishni tuzatishga harakat qilishda, eng avvalo, osmir shaxsiga, uning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishiga hamda o`smirning motivatsion ehtiyojlar sohasini o`zgartirishga, nosog`lom turmush tarzi va tarbiya muhitini sog`lomlashtirishga e`tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda o`smirlardagi mavjud bo`lgan ijobiy sifat va xususiyatlariga

tayangan holda ularda har tomonlama qiziqishni, birinchi navbatda, o`qishga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga nisbatan bo`lgan qiziqishlarni rivojlantirish zarur bo`ladi.

Xulq og`ishiga ega bo`lgan bolalar va o`smirlar o`rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida o`zaro yaqinlik va sog`lom munosabatni o`rnatishga bog`liqdir. Shuning uchun o`qituvchining tarbiyasi og`ir o`smirga nisbatan berayotgan e`tiborini, ularni o`zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo`layotganligini o`smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o`smir xulqini sog`lomlashtirishga qo`yilgan ilk qadam bo`lib hisoblanadi.

O`smirdagi moslashmagan xulqni tuzatishning keying sharti o`smir psixikasidagi o`zgarishni o`z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam ko`rsatish hisoblanadi. Bunda amaliyotchi psixologning xizmati kata bo`lishi lozim. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, uchastka militsiya xizmati tayanch punktlari qoshidagi profilaktika nozirlari zimmasiga voyaga etmaganlar bilan ishlash xizmatini yuklash yoki bo`lmasa voyaga etmaganlar bilan ishlash profilaktika nozirlari xizmatini har bir mahallada alohida joriy qilish, bizningcha maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, uchastka voyaga etmaganlar bilan ishlash nozirlarini psixologik-pedagogik, psixatrik boshlang`ich bilimlar bilan qurollantirish davr taqozosi hisoblanadi.

Shuningdek, maktab, o`rta maxsus ta`lim maskani faoliyatiga psixiatr shtat birligini joriy etish yoki bo`lmasa, maktab psixologi tibbiy-psixatrik bilimlar bilan qurollantirilishi yaxshi natija berishi mumkin. Bu masalani malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

O`smirlarda xulq og`ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olishga qaratilgan o`quv-tarbiyaviy tadbirlar o`smirlarning oilaviy muhiti, tarbiyalanganlik darajasi va har sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki, oila muhitini bilishlik o`smir shaxsi haqida, uning tarbiyalanganlik darajasi va turmush tarsi, ijobiy vasalbiy fazilatlari haqida ma`lumotlarni beradi. Bu orqali xulq

og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olish ishlariga o'smir o'ilasi a'zolarini ham jalb qilish mumkin bo'ladi. Oila, mahalla, maktab ta'sirlarining o'zaro hamohangligi ko'zlangan natijalarni qo'lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatida shakllanishi jarayonini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmaslik lozim. Chunki amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bir profilaktik tadbir ikkinchi bir o'smirda yaxshi natija bermasligi mumkin. Bu, o'z navbatida, xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smir shaxsi, psixologiyasi va xarakter xususiyatlarini hisobga olishni taqozo qiladi.

Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishini oldini olishning muhim shartlaridan yana biri-tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish hisoblanadi. Afsuski, bu masalani bugungi kunda talab darajasida deya olmaymiz. Shuning uchun ham bunday paytlarda ko'pincha oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o'smirlar tabiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o'zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi.

O'qituvchi o'quvchi o'sib voyaga etayotgan oila muhitini, uning ahloqiy qiyofasini har doim ham bilavermaydi. Ba'zan ayrim oqituvchilar bolalar va o'smirlar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarni ota-onalar bilan maslahatlashmay, ular haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lmay amalga oshiradilar. Bunday holatlarda tabiiy ravishda tarbiyaviy tadbirlarning olib borilishi ko'zda tutilgan profiklakrik choralarning ta'sirchanlik darajasi pasayishiga sabab boladi. Oqibatda profilaktikadan ko'zlangan maqsadga erishilmay qolinadi.

O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy faravonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir³.

³ I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1998, 21-bet.

Ma'lumki, oila muhitining sog'lomligi, ota-onalar va oiladagi boshqa a'zolarining madaniy, aqliy, ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamolligi unda tarbiya olayotgan bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning ilmu-ma'rifatliligi bolalar va o'smirlarda g'ayriqonuniy xulqning oldini olishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ushbu holatni tadqiqotimizdan olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Olingan natijalarga ko'ra, jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar ota-onalarining ma'lumotlilik va savodxonlik darajasi xulq og'ishiga ega bo'lmagan bolalar va o'smirlar ota-onalarinikiga qaraganda ancha past darajani ko'rsatadi.

Ushbu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, ota-onalarning ma'rifatlilik darajasi, aqliy, ma'naviy va axloqiy barkamolligi bolalar va o'smirlar o'rtasidagi jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi oldini olishda muhim omil bo'lib hisoblanadi, bolalar va o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda qator psixologik-pedagogik masalalarga e'tibor qaratish kutilgan natijani beradi.

1.2. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni.

Prezidentimiz I.A.Karimov; "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini angladigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni atbiyalash imkoniga ega bo'lamiz" deb ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" orqali shaxs tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda⁴.

"Bola bilan muloqot qilish san'atidan-da murakkab san'at yo'qdir", deb yozgandi mashhur polshalik pediatri va pedagog Yanush Korchak.

Bolalar va ota-onaning, umuman, kattalarnin muloqoti va munosabati, ayniqsa, bolalar o'smirlik yoshiga yetganda o'ta murakkablashadi, muloqotning nozik qirralari ko'payadi. Pedagoglar va psixologlar, sotsiologlar va fiziologlar,

⁴ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.

psixatrlar va huquqshunoslar – barcha bir ovozdan o`smirlik davri inson hayotidagi murakkab va inqirozli davr ekanini tan oladilar.

O`smirlik davrini inqirozli davrga aylantirib qo`yadigan sabablar juda ko`p (bolalarning jinsiy etilishi, ularda kattalik hissining paydo bo`lishi va rivojlanishi, mustaqillikka bo`lgan ehtiyojning kuchayishi va h.k.). bunday sabablarning tahliliga bag`ishlab qator maqolalar, risolalar yozish mumkin. Biroq farzandining “tilini topa olmayotgan”, u bilan psixologik aloqa o`rnatishga qiynalayotgan har biro ta-onani farzandidagi o`zgarishlarning sabablaridan ko`ra shunday vaziyatlarda qanday yo`l tutishi kerakligi, nima qilish mumkinligi ko`proq qiziqtiradi. Shu tufayli ushbu bo`limda asosiy urg`u o`smir yoshdagi bolalar va ota-onalar o`rtasidagi psixologik aloqani, muloqotni yaxshilash uchun nimalar qilish maqsadga muvofiqligiga qaratildi. Ushbu bandda farzand tarbiyasida qo`l keladigan tayyor “retseptlar” yo`q, unda barcha vaziyatlarga birdek mos keluvchi tavsiyalar ham uchramaydi. Ota-onalarga farzandi bilan qanday muloqot qilishni o`rgatish niyati ham ko`zlanmaydi. Zero, har bir oilada bu borada o`ziga xos tajriba, an`ana va qoidalar borligi hech kimda shubha uyg`otmaydi. Demak, bundan ko`zlangan bosh maqsad – mutaxassislarning amaliy tavsiyalarini (ko`rsatmalarini emas, aynan tavsiyalarini) o`quvchiga etkazish, uni jonli mushohada va mulohazaga undashdir.

Avvalo, shunga e`tibor qaratish kerakki, o`smirlik yoshida ota-onaning bola ko`z o`ngidagi mavqei bir muncha pasayadi. Maktabgacha yosh davrida, kichik maktab yoshida ota-onasini eng kuchli, aqlli va chiroyli, deb hisoblaydigan bolalar o`smirlik yoshiga etib, aslida ularning ota-onalarida ham talay kamchiliklar borligini payqay boshlashadi. Umuman, bu davrda tengdoshlar mavqei oshib, kattalarga nisbatan tanqidchan munosabat kuchayadi.

Ota-ona va o`smir bola o`rtasida vujudga keluvchi nizolarga ko`pincha quyidagilr sabab bo`ladi: bolaning do`st va o`rtoq tanlashda adashishi, turli joylarga va tadbirlarga ko`p borishi hamda bu erlarda uzoq qolib ketishi, kiyinishi va tashqi ko`rinishida antiqa o`zgarishlar qilishi, uy yumushlari bo`yicha turli

topshiriqlarni bajarmasligi, aka-ukalar va opa-singillar bilan tortishishlari, ota-ona va kata avlod vakillariga nisbatan hurmatsizlikni ochiq namoyon etishi.

O`smir bola hamda ota-ona o`rtasidagi nizo va tushunmovchilikdan butunlay holi bo`lgan biror oilani topib bo`lmaydi. Ammo tadqiqotlardan ma`lum bo`lishicha, juda jiddiy nizolar 15-20% oilalardagina ro`y beradi. O`rtadagi nizolarga qaramay ko`pchilik o`smirlarda ota-onaga ishonch, hurmat yuqori darajada saqlaniv qoladi, o`smir ota-onaning maqtoqlarini hamda e`tiroflarini juda yuqori darajada qadrlaydi. Mana shunday qadrni, hurmatni, munosabatlardagi iliqlikni saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun psixolog mutaxassislarning ota-ona hamda farzand o`rtasidagi psixologik aloqani yaxshilash maqsadiga xizmat qiluvchi ushbu tavsiyalarga quloq tutish ayni muddao bo`lardi:

1. Ota-ona farzandining xulq-atvori yuzasidan o`zining munosabatini bildirmoqchi bo`lganda, “Sen xabar” uslubidan emas, “Men xabar” uslubidan foydalangani ma`qul. Bu degani “Sen kecha aytganimni qilib qo`ymabsan”, “Sen nega doim odamni javratasan”, “Sen qaerdan topding bu qiliqni” kabi mulohazalar o`rniga “Men kecha aytganimni qilib qo`ymaganingdan biroz ranjidim”, “Men hech tushunmayman nega odamni javrataverasan”, “Men bilmadim, bu qiliqni qaerdan topding” kabi mulohazalarni ishlatish kerak. Zero, bu bolaga bo`lgan hurmat va ishonchni namoyon etadi, o`rtadagi qarama-qarshilikni anchagina susaytiradi.

2. Ota-ona bolaning biror fikrini ma`qullamoqchi bo`lganda, shunchaki “ha” yoki “mayli” deb aytishdan ko`ra quyidagi turdagi mulohazalardan foydalangani ma`qul: “Agar sen shunday qilishni hohlayotgan bo`lsang...”, “Mayli sen aytganday bo`lsin”, “Senday bunday qilishingga men qarshi emasman”, “Buni men emas, sen hal etasanku”. Zotan, bu ota-ona bolaga mustaqil shaxs sifatida ishonayotganini, uning shaxsiy mustaqilligini tan olayotganini ko`rsatadi.

3. Ota-ona farzandiga nimanidir taqiqlamoqchi bo'lganda, quyidagi mulohazalarni berilgan ketma-ketlikda bildiradigan bo'lsa, bola taqiqni unchalik og'ir qabul qilmaydi:

a) ota-ona bolada muayyan istak paydo bo'lgani o'rinli ekanini tan oladi – “Biz bugun kinoga borging kelayotganini yaxshi tushunayapmiz”.

b) ota-ona bolaning biror bo'yicha taqiqni aniq belgilaydi – “lekin biz senga ruxsat bera olmaymiz, chunki ertaga maktabga tayyorlab borishing kerak bo'lgan darslaring ko'p”;

v) ota-ona bolaga o'z istagini boshqa holatda amalga oshirish imkoniyati bo'lishi to'g'risida aytadi – “Shanba kuni esa bo'sh vaqting ko'proq bo'ladi, ehtimol shu kuni borish to'g'rib o'lar”;

g) ota-ona bolaga oilada hukm-suruvchi tartib-qoidalardan norozilik bildirishi uchun yordam berib yuboradi – “Shubhasiz, sen bunday taqiqlar bo'lmasligini xohlarding”, “Albatta, hozir ruxsat bermayotganimiz senga yoqmayapdi”, “Balki, biz umuman noto'g'ri qilayapmiz, deb hisoblayotgan bo'lsang ajab emas”.

Eng muhimi, aytilayotgan taqiqlar bola sha'nini kamsitmaydiganshaklda bildirilishi kerak: “Ish kunlari kinoga borilmaydi” degandan ko'ra, “O'zing yaxshi bilasan, ish kunlari kinoha borib, boshqa muhim ishlar qolib ketishi mumkin”, deb aytgan ma'qul.

4. Ota-ona bola ulg'ayib borgan sayin oilaviy muhokamada uning ovozi ham asta-sekin ko'p narsalarni hal etadigan darajaga etishi uchun sharoit yaratishi kerak. Turli muammolarni muhokama qilishda, bahslarda ota-ona o'zining nohaqligini tan olishdan qo'rqmasligi lozim. Bordi-yu o'rtada nizo vujudga kelsa, ota-ona birinchi bo'lib, yarahish tomon qadam tashlashi maqsadga muvofiq. Bunda ota-ona o'z fikrlarini “Kechirasan, men seni yaxshi ushunmadim, shekilli. Biroz qizishib, ayrim keraksiz narsalarni ham aytib yuborganga o'xshayman. Hozir men biroz shoshganimni bilayapman. Seni tushunishni juda-juda xohlayman. Qani kel, bir boshidan kata odamlardek gaplashib olamiz” degan so'zlar bilan boshlagani ma'qul.

Bir soʻz bilan aytganda, bola bilan muloqotda ota-onadan haqiqiy ijodkorlik, egiluvchan munosabat, togʻdek bardosh talab qilinadi. Mana shu hislatlar tugab borayotganda, chidashga boshqa majol qolmayotganday boʻlib tuyila boshlaganda, ota-ona oʻsmir bolalar oʻz kundaliklari va insholarida koʻpincha “baxt-bu seni kimdir tushinishi” deb yozishlarini eslasinlar. Farzand bilan aloqani, erkin va samimiy muloqotni yoʻqotish farzandning oʻzini yoʻqotish bilan barobarligini eslasinlar. Shak-shubhasiz, mana shular eslaganda, bu haqda oʻy surilganda bir zumda ancha emirilib qolgan bardosh togʻi yonida yana oʻnta hunda togʻ qad rostlaydi.

Mamlakatimizda bolalarga har tomonlama gʻamxoʻrlik koʻrsatish, onalik va bolalikni himoya qilish, sogʻlom avlodni kamol toptirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. 1998 yili qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksida bolaning asosiy huquqlari mustahkamlab qoʻyilgan: jumladan, Kodeksning 67-moddasida “Bola oʻz huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega” ligi alohida taʼkidlanadi.

Shuningdek, har bir bola yoshi, sogʻligʻi, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonunda oʻrnatilgan tartibda mehnat qilish huquqiga egadir. Ishga 16 yoshdan qabul qilishga ruxsat beriladi. 15 yoshga toʻlganlar ishga ota-onalaridan birining yoki ota-onalari vazifalarini oʻtayotganlarning yozma tarzdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, voyaga yetmagan shaxs 15 yoshdan boshlab mehnat munosabatlarining subʼekti sanaladi. Soliq qonunchiligini buzganlik subʼekti 16 yosh hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarning mehnat munosabatlaridagi ishtirokini oʻrganib, bu borada muayyan qarama-qarshiliklar mavjudligiga guvoh boʻlamiz.

Amaliyotda koʻpincha Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 28-moddasi va Mehnat kodeksining 77-moddasi talablariga zid ravishda 15 yoshga toʻlmagan shaxslarning ish kuchidan foydalanib kelinadi. Demak, ishga qabul qilish yoshining chegaralanishi formal tusga ega.

Bundan anglashiladiki, mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilikdan ishga qabul qilishdagi yoshning chegaralanishi olib tashlanishi lozim. Uning o`rniga yosh ishchilarning ish sharoiti, sog`lig`i va ehtiyotsizligini himoya qiluvchi Nizom kiritilishi maqsadga muvofiq deb o`ylaymiz.

Davlat bolaning mehnat qilish huquqini 18 yoshga to`lmaganlarning ishni o`qish bilan qo`shib olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va qonunda ko`zla tutilgan boshqa chora-tadbirlar orqali kafolatlaydi. Har bir bola, shuningdek, yoshi, sog`lig`i va ehtiyojlariga muvofiq dam olish va bo`sh vaqtini o`tkazish huquqiga ega.

Bolaning sog`ligini saqlash huquqini davlat, qonunchilikka muvofiq, bepul tibbiyo yordam ko`rsatish bilan kafolatlaydi. Bu malakali tibbiy xizmatni tashkil etish, bola va uning ota-onasi sog`ligini nazorat qilish, kasalliklarga qarshi profilaktikani amalga oshirish, kasbiy layoqatni aniqlashda davlat byudjeti hisobidan bepul tibbiy maslahatlar berish, oziq-ovqatlarning sifatli ishlab chiqarilishi va sotilishi ustidan nazorat o`rnatish, sog`lom turmush tarzini targ`ib etish va rag`batlantirish kabi chora-tadbirlar vositasida ta`minlanadi.

Mamlakatimizda bolalarni himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosati darajasigako`tarilgan. Mustaqillik yillarida mazkur sohada bolalarning huquqlarini belgilovchi mukammal qonunchilik bazasi yaratildi. Ayniqsa, "Bola huquqlarining kafolatlari to`g`risida"gi Qonunning qabul qilinishi jamiyatda bola huquqlarining himoya qilinishi va kafolatlarining aniq mexanizmlari yaratilishini ta`minladi. SHu bilan birga, qonunda BMTning Bola huquklari to`g`risidagi konvensiyasida nazarda tutilgan bolaning asosiy huquqlari majmui mustahkamlandi, uning asosiy huquqlari majmui mustahkamlandi, uning asosiy prinsiplari va qoidalari milliy qonunchiligimizga uyg`unlashtirildi. SHuningdek, milliy qonunchiligimizda Mehnat Tashkiloti bosh assambleyasining 1996 yilda bo`lib o`tgan bolalar mehnatini bartaraf etishga bag`ishlangan xalqaro konferensiyasi rezolyusiyasi hamda shu yo`nalishdagi xalqaro huquq me`yorlari prinsiplari ham o`z ifodasini topgan.

Mehnat munosabatlaridagi xalqaro huquq normalarining bola huquqlarida kafolatlanishi to'g'risida so'z yuritganda, avvalo, bu borada ham milliy qonunchiligimizdagi ustuvor jihatlariga to'xtalib o'tish lozim. Bu ustuvor jihatlar, albatta, milliy qadriyatlarimizni, bola tarbiyasidagi an'analarimizni qamrab olgan. Bolalar va o'smirlarning sog'lig'iga, rivojlanishiga, shuningdek, ta'lim olishiga to'sqinlik kilmaydigan ishlarni bajarishi ijobiy hol, deb baholanadi. Bunday yumushlar bolalarning ota-onalariga uyda, oila yumushida yordam berishlari, darsdan so'ng hamda ta'til paytlarida o'zlarining zarur xarajatlari uchun pul ishlab topishlari bilan izohlanadi: Bu kabi mehnat bolalar tarbiyasiga, oila farovonligiga ko'mak berish bilan birga, bolaning kelajakda jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun zarur tajriba va ko'nikmalarni egallashida ham muhim ahamiyat kasb etadi. SHu ma'noda, ishonch bilan aytish mumkinki, mehnat munosabatlaridagi xalqaro huquq normalarining milliy qonunchiligimizda aks etgan bola huquqlarida kafolatlanishi alohida e'tibrga loyiqdir. Zotan, bularning barchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 37-moddasida, Mehnat kodeksining 239-247-moddalarida, Oila kodeksining 67-moddasida, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonunning 20-moddasida, "Ta'lim to'g'risida"gi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid qonunlarda mustahqamlangan. SHuningdek, hukumatimiz tomonidan 2007 yil 15 yanvarda tasdiqlangan O'zbekistonda bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Harakat dasturida mehnat qonunchiligiga muvofiq, voyaga yetmaganlar manfaatlarini hisobga olingan holda, yoshlar mehnat birjalarini ijtimoiy tarmoq sifatida tashkil etish, kasb ta'limini olgan yoshlarni ishga joylashtirish va bandligini tezlashtirish, ishlayotgan o'smirlarning mehnat sharoitlari monitoringini takomillashtirish kabi vazifalar aniq, belgilangan.

BMT Bosh Assambleyasining O'zbekiston vakillari ham ishtirok etgan sessiyalarida yillik Deklarasiya, "Bolalar yashashi uchun yaroqli do'nyo" kabi hujjatlar qabul qilinib, bu hujjatlarda mazkur yo'nalishdagi O'zbekiston tajribasi hisobga olindi. SHu bilan birga, BMTBola huquqlari qo'mitasining 42-sessiyasida O'zbekistonning ikkinchi milliy ma'ruzasi asosida qator ijobiy tavsiyalar ishlab

chiqildi. Bu anjumanyarda bolaning farovonligini va baxt-saodatini ta'minlash bo'yicha umumiy harakatlar hamda yo'nalishlarning yangi rejalari global miqyosda belgilab berildi.

SHuni alohida qayd etish lozimki, YUNISEFning ijtimoiy monitoring va boshqa tadqiqotlarida O'zbekistonda bolalarning sog'lig'ini saqlash, ularni kasbga yo'naltirish unun sarflanayotgan davlat xarajatlari miqdori Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng katta ekani, onalar va bolalar farovonligining ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha esa Respublikamiz xalqaro forumlarning yaqin kelajak uchun ishlab chiqqan tavsiyalaridan ham oldinda borayotgani alohida ta'kidlangan.

Darhaqiqat davlatimiz raxbari ta'kidlaganidek, biz buyuk qelajagimizni avvalambor yosh oilalar, yosh avlod timsolida ko'ramiz. Bugun katta hayotga qadam qo'yayotgan navqiron o'g'il-qizlarimizning ochiq chehrasiga, aql-zakovatiga, harakat va intilishlariga boqib, ularning yurtimizda hech kimdan kam bo'lmaydigan yangi hayot, yangi jamiyat qurishga qodir ekanligiga ishonchhosil qilamiz. Bu ishonchga nafaqat mehnat munosabatlaridagi halqaro huquq normalarining bola huquqlarida kafolatlanishi, balki bolalarning barcha huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ularning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minotga oid barcha huquqlari kafolatlab qo'yilgani asos bo'lib xizmat qiladi. O'ylaymizki, istiqbolda ham mamlakatimizda bu borada lib borilayotgan ishlar hayotda o'z ifodasini topaveradi.

1.3. Voyaga yetmaganlarning xuquqbuzarliklari hamda ularning asosiy sabablari.

Rivojlangan G`arb mamlakatlari va Rossiyada oilada farzand tarbiyasi, oila-nikoh masalalariga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvlar mavjud. Jumladan, O`zbekistonda ham olib borilayotgan qator tadqiqotlarda oilaning ijtimoiy, iqtisodiy hamda tarbiyaviy mavqie, er-xotin yoki ota-onaning farzand tarbiyasiga munosabati, uning ola barqarorligiga ta`siri, oilaviy o`zaro hurmat hamda moslik, oila muhitiga xos etakchilik, oilada ijtimoiy foydali mehnatning taqsimoti, oila byudjeti, oila kelajagining istiqbollarini belgilash kabi masalalar Respublika “Oila ilmiy-amaliy markazi” hamda qator oliy o`quv yurtlar hamkorligida o`rganilmoqda. Bir gap bilan aytganda oila va uning mustahkamligi davlat siyosati darajasida qaralmoqda.

Ma`lumki, Sharqona oila tarbiyasi bilan G`arbona oila tarbiyasida bir-biriga ko`p jihatdan o`xshamaydigan tomonlar mavjud. G`arbda “erkin” inson g`oyasiga ko`ra madaniyat, demokratiya ovrupacha talqin qilinsa, “nikoh ham ma`lum ma`noda shaxs erkinligini bo`g`adi, cheklaydi” degan aqidaga amal qilinib, ajralish yoki oilani saqlash, farzand tarbiyasi va uning mas`uliyati Sharqona tarbiyadan farq qiladi.

Sharqda nikohsiz er-xotin bo`lib yashash mumkin emas. G`arbda esa, kelishuvga muvofiq hamxona bo`lib yashash erkinligi mavjyd. Jumladan, Sharqona oilaviy an`analar shar`iy qonun-qoidalar bilan tartibga solinadi. Bu jarayon oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta`minlaydi. Qadimdan quad-andalar obdon bir-birini surishtirib, o`rganib, so`ng rozi-rizo bo`lib kelishgan. To`ylar jarchilar vositasida jar aytib chaqirilgan. Qishloqma-qishloq yurib, aytim aytilib, to`yga chorlangan. Endi esa telefon va taklifnomalar udum tusini oldi. To`ylardagi milliylik yanada takomillashdi va madaniylashdi.

Qur`onning 114 surasidan 20 tasida oila va u bilan bog`liq masalalar tilga olinishi, birinchidan, ijtimoiy hayotda oila hamda uning o`rni anglatilsa, ikkinchidan, Islom ta`limotida bu masalaga naqadar mas`uliyat bilan qaralib kelinayotganligi tobora ayon bo`ldi.

Olib borilgan dastlabki ma'lumotlardan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarning pedagogik nazoratsizligiga sabab bo'ladigan quyidagi omillar aniqlandi:

- ota-onalar yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxslarda pedagogik bilimning etishmasligi;
- voyaga yetmaganlarning axloqiy va huquqiy tarbiyasida muammolarning borligi;
- voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi kamchiliklarni o'z vaqtida o'rganib, oldi olinmaganligi;
- o'smirni noo'rin yoki bilib-bilmasdan jazolanishi;
- bolalarni ijtimoiy foydali mehnatdan tobora uzoqlashuvi;
- bolani ortiqcha erkalatib yuborish (aytgani aytgan va degani degan holga kelib qolishi);
- oilaviy muammolarning mavjudligi (oilaviy muhitning yaxshi emasligi, ishsizlik, ajralishlar, ko'chib yurish, yangi sharoitga o'smirni moslasha olmasligi, kasallik va iqtisodiy nochorlik kabilar);
- voyaga yetmagan shaxsning himoyasizligi, ya'ni uni eshitmaslik yoki tushinishni istamaslik, muammolar echimiga qaratilgan to'g'ri yo'lni ko'rsatmaslik va yordam bermaslik;
- voyaga yetmagan shaxsni tengqurlari tomonidan kamsitilishi, tahqirlanishi, jismoniy choralari ko'rinishi va bunday muammoli holatlarni maktab ma'muriyainining bilmasligi yoki befarq qarashi;
- oila, o'quv muassasasi va mahalla hamkorligining pedagogik talablar darajasida emasligi;
- oilada ota-ona va farzandlarning kelishmasligi, ichkilik yoki boshqa illatlar ustunligida oilaviy qo'ydi-chiqdilar yoki ikki xotinlik, boyvachchalik, boylik orttirishning ketidan quvish oqibatida o'zaro munosabatlarning nosog'ligi;
- bolani ortiqcha tergash, nasihatgo'ylik qilish, har xil xilg'ir jismoniy ishlarga jalb qilish oqibatida mehnatdan bezdirish, bolani yosh, jins va individual-ruhiy xususiyatlarini inobatga olmaslik;

- nazoratsizlik oqibatida voyaga yetmaganlari jinoyatni o'tab qaytganlar yoki jinoiy tajribaga ega bo'lganlar muhitiga tushib qolishi va hokazo.

Ko'rib o'tilgan turli xil omillarning ta'siri oilaviy muhitning barqaror bo'lishini, har doim ota-onani farzand uchun o'z burchlarini to'g'ri ado etib, ibratnamuna ko'rsatish va bir gap bilan aytganda ma'naviy-axloqiy iqlimning pedagogik talablar darajasida bo'lishini taqozo etadi. Oilada bola shaxsining ma'naviy-axloqiy dunyosining shakllanishi uchun etarli darajada ruhiy sokinlik va xotirjamlik muhiti yaratilishi lozim. Ana shunday oila davrasida tarbiyalanayotgan bolaga ezgu fikr, quvonch va baxt hamkorlik qiladi. Oila jamiyatning bir bo'lagi sifatida to'laqonli insonparvar, vatanparvar va ijtimoiy faol shaxsning kamol topishida o'z hissasini qo'sha oladi.

Tadqiqot yuzasidan olingan dastlabki ma'lumotlarimiz "pedagogik qarovsiz" bolalarda ijtimoiy faollikning shakllanishini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib o'rganish lozimligini ko'rsatdi. Bular:

1) shaxsga xos ijtimoiy xususiyatlarning shakllanishi bo'lib, unda bolaning xulq-atvorida o'zgarishlar sezila boshlaydi. Bola o'z "men"idan tashqari oila, maktab va mahallasida ham u e'tibor qaratishi lozim bo'lgan shaxslar borligini, ularning manfaat va hayot tarzini ham hisobga olish lozimligini anglab eta boshlaydi. Bolada ijobiy o'y-hayol va o'z fikrini yuzaga chiqarish motivatsiyasi shakllanadi.

2) shaxslararo munosabatlaega daxldor bo'lgan maqsad va vazifalar bolani bezovta qiladi, oromini buzadi. Bola ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni bajarish mas'uliyatini his etadi. Jamoat va ota-ona topshiriqlarini bajarish jarayonida o'z hatti-harakatini rejali boshqarishga, jamoa va oila manfaatiga mos ishlarni qilishga intiladi. Shaxslararo munosabatda o'z o'rnini va mavqeini belgilashga kirishadi. Oilada o'ziga mos ishlarni bajarishni zimmasiga olib boshlaydi.

3) dastlabki ijtimoiy ko'nikmalar asosida o'z tevaragi va atrof-olamda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar hamda yangiliklarga befarq qaramaslik, unga to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zining ijobiy xulq-atvoriga asoslanib, jamiyat hamda tabiatga nisbatan sub'ektiv qarashlarning shakllanishida ko'rini boshlaydi. O'z

kuchi va imkoniyatini yanada oshirib borishga, o`qib – o`rganish hamda izlanishga kirishadi. Bahs-munozaralarga o`z nuqtai nazarini himoya qilishga intiladi. Ilg`or fikrlar bildirib, jamoada etakchilik qilishga, obro` qozonishga harakat qiladi.

Bu jarayonda o`smir o`zining shakllanib kelayotgan ijtimoiy faolligini tarbiyachi-o`qituvchilar va ota-onalar tomonidan e`tirof etilishi hamda qo`llab-quvvatlanishini astoydil istaydi. O`tkazilgan individual suxbatlarimiz jarayonida 30 foizdan ortiq “pedagogik qarovsiz” bolalar o`qiyotgan maktabi, ota-onasi va xalqiga xizmat qilish hamda fidoiyilik ko`rsatishga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Shunga ko`ra voyaga etmaganlarning ijtimoiy faolligini oshirish shart-sharoitlarini yaratish dolzarb pedagogik vazifa ekanigi aniqlandi.

Ezgulik va adolat tuyg`usi inson tabiatiga xos xususiyatdir. “Pedagogik qarovsiz” bolalarda ana shunday xususiyatlarning shakllanishida ota-onalar va tarbiyachi-o`qituvchilarning o`zaro hamkorligi o`z samarasini beradi. Bu jarayonda o`qish va mehnatdan chalg`iyotgan bolalar halol mehnat qilib kun ko`rish bilan, pul toppish payidagi kun ko`rishning farqiga borishlari lozim. Chunki pedagogik qarovsiz o`quvchilarni ertami-kechmi “tarbiyasi qiyin” o`quvchilarga aylanish ehtimoli yo`q emas. Pedagoik qarovsizlikning quyi, o`rta, yuqori va criminal darajalari farq qilinadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida oilaviy munosabatlarning o`rni mavzusi yangi ilmiy yo`nalish sifatida kriminologiyada oila kriminologiyasini vujudga kelishiga asos o`ldi. Oilada, oilaga qarshi sodir etiladigan jinoyatlarning nazariy negizini oila kriminologiyasida ishlab chiqilgan oilani kriminologik tuzatish konsepsiyasi tashkil etadi.

Ta`kidlovchi eksperiment natijalariga asoslanib, shakllantiruvchi eksperiment jarayonini 3 ga bo`lib, ya`ni 1-galda pedagogik qarovsiz bolaning fikr yuritish tarzini sog`lomlashtirish zarurligi masalasiga asosiy e`tibor qaratildi. Bular o`z ichiga:

- 1) fikr yuritish sifati (mustaqil fikrlash tarsi, analitik ko`nikmalar, fikrni sog`lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, oqilona va to`g`ri xulosa

chiqarishga o`rganish, jo`yali maslahat bera olish ko`nikmalarining shakllanishi, jahl, g`azab va jaxolatdan saqlanish hamda o`zini tiya bilish, ruhiy sog`lom va tetik holda fikrlash va hakazo);

2) ijtimoiy faoliik ko`nikmalarining asta-sekin rivojlanib borishi (jamoat manfaatini o`ylash, ijtimoiy foydali mehnatda o`zini ko`rsata olish, samara beradigan ijobiy mashg`ulotlar bilan shug`ullanish, ijodkorlik ko`nikmalarining shakllanishi, boshqalarga o`z fikr-mulohazalarini ma`qul kelishi, tadbirkor bo`lishga intilish va hakazo);

3) kasbga qiziqishmotivlarining shakllanishi (sevimli o`qituvchisiga taqlid qilish, fanlarga qiziqish, ilg`or kasb egasiga xavas qilish, ota-onasining kasbga qiziqish kabilar). Bu o`rinda ota-onalarni o`qituvchilar bilan hamkorlikda bolani kasbga qiziqishlarini boshqarish, ya`ni ongli va asosli ravishda kasb tanlashmotivini shakllantirish o`quvchida mustaqil fikr yuritish va shu asosda o`zidagi individual imkoniyatlarni qobiliyat darajasida yuzaga chiqishga olib kelish mumkinligi o`rganildi.

Xulosa o`rnida shuni aytish lozimki, o`smir yoshida oilaviy munosabatlarni pedagogik sog`lomlashtirish ko`p jihatdan ota-onalarni pedagogik bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishlarini talab qiladi. Ayniqsa ota-onani ibratnamuna ko`rsatish, tarbiyada til va dil birligi bolada ijobiy xislatlarni shakllantiradi. Bu o`rinda bolani nazoratsiz qoldirmaslik, bola bilan go`yo do`stona munosabat o`rnatish, uni eshitish, fikr mulohazalarini tahlil etish, xolisona baholash, kerakli o`rinlarda farzand bilan maslahatlashib, kelishib ish yuritish ota-onaning burchi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilanishicha 18 yoshga to`lmaganlar voyaga etmaganlar hisoblanadi. Qonun insonparvarlik printsipligat rioya qilib, shaxsni 18 yoshgacha og`ir jazoga tortmaslikni nazarda tutadi. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida alohida bo`lim va bob ajratilgan bo`lib, u “Voyaga yetmaganlarning javobgarligi” deb ataladi.

Jinoyat Kodeksining qator moddalarida voyaga etmaganlarning jinoyat sodir etishi va uni engillashtiruvchi holatlar belgilangan, hatto voyaga etmagan

shaxsni voyaga etgan shaxslar tomonidan tilanchlikka, spirtli ichimliklarni ichishga, giyohvandlik kishining aql-idroki hamda ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi moddalarni iste'mol qilishga jalb qilganligi uchun javobgarlik belgilangan. Adolatparvar qonunlarimiz tomonidan bolalar va o'smirlarning huquqlari etarlicha muhofaza qilingan. Faqat uni bajarish biz kattalarning zimasi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Qadimgi yunon faylasyfi Arastu: "Barkamolikka erishgan odam barcha jonzotlardan yuqori yuqori turadi, ammo agar qonunlar va adolatga bo'ysunmay yashasa, hammasidan tubandir" deb yozadi.

Quyida keltirilganlarni voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishlarida asosiy sabablar deb ko'rsatish mumkin:

- avloddan-avlodga o'tadigan nasliy (genetik) xususiyatlar, ya'ni qiziqonlik, engiltaklik, beparvolik, voqea-hodisalarning qay darajada tez yoki kech qabul qilib miyani ishlata olishi, ota-onaning jinoyatchilik sifatlarini bolalarga o'tishi;

- kishi yashab o'sgan va tarbiyalangan muhit hamda yana shu muhitdagi ijobiy, salbiy hodisalarning ichi shaxsiga ta'siri, uning qay darajada shakllanib qolganligi;

- yoshlar ongida huquqiy bilim, malaka, ko'nikmalarning shakllanmaganligi, huquqbuzarlik, jinoyat, javobgarlik, jazo uning og'ir oqibatlarini bilmaslik, yoki aksincha huquqiy ong va bilimga ega bo'lsada, huquqiy madaniyat etishmasligi oqibatida qasddan, ehtiyotsizlikdan jinoyat dosir etishlari;

- ota-ona yoki ularning o'rni bosuvchi homiy, vasiylarning beparvoliklari;

- mahalla-ko'y, ayrim ma'suliyatsiz ustozlar, qarindosh-urug'larning jamiyat, davlat ahamiyatigamolik farzandlar tarbiyasiga bo'lgan salbiy beparvo munosabatlari;

- ichki ishlar organlarining vakillari, xususan, voyaga etmaganlar nazorati bo'limining o'z ishiga sidqidildan munosabatda bo'lmayotgan xodimlari, uchastka vakillarining yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlarini ko'rmasliklari;

- yoshlar bo`sh vaqtlarini mazmunli, ko`ngilli o`tkazishlari uchun etarli sharoitlarning etarli emasligi;

- maktablarda “Huquq asoslari” darslarining yuqori saviyada tashkil etilmaganligi va boshqalar.

Asosan.Bola qanday oilada tarbiya olgan, shuni aniqlash maqsadga muvofiq.Buni quyidagi to`rt turdagi oila tarbiyasida ko`rish mumkin:

Birinchi oila, ota-onasi juda yaxshi ishchi, xizmatchi, lavozimdagi shaxs, mehnatkash, xullas ijobiy shaxslar.Nega shunday ota-onaning farzandi jinoyat sodir etadi.

Farzand haddan tashqari erkalatib, aytgan narsasini muhayyo qilish oqibatida bo`lib voyaga etadi, natijada u jinyatga qo`l uradi, oilani barbod bo`lishiga olib keladi.

Ikkinchi oila – ichkilikka berilgan, giyohvand moddalar iste`mol qiluvchi, mehnat intizomini qo`pol ravishda buzuvchi, oilada farzandlarining borligini ham, yo`qligini ham sezmaydigan ota-onalar tarbiyasi.

Shu o`rinda amaliyotdan bir misol olib ko`raylik: 14 yoshli o`smir qilgan qilmishi uchun jinoiy jazoga tortilganda, uning qaysi oilada tarbiya olganligi aniqlandi. O`spirin biro damning badaniga qattiq shikast etkazganligi uchun jazolangan. – deb so`rashganda, u “otam onamni necha marotaba shunaqa urganki, hech kim ularni jazolamadi, nega endi meni jazolash kerak”,- deb javob qaytardi.

Bola mehrsizlikni, shafqatsizlikni oilada otasida o`rgangan. Lekin afsuski, sud oldida beshafqat bo`lib o`sgan bu o`spirinning qilmishi uchun otasi emas, o`zi javob berishga majbur, qonun shuni talab qiladi.

Uchinchi oila-bu bolaning ota-onasiz qolganda tarbiya oladigan dargohi, ya`ni maxsus tarbiya muassasalari.Albatta, farzand otasiz, onasiz tug`ilishi mumkin emas, lekin yashashi mumkin. Buning sababi, ota-onasi otalik onalik huquqidan mahrum bo`lishi, ular vafot etishi yoki farzandini tashlab ketishidir. Vasiylari, homiylari o`z burchlarini to`liq bajarmasalar farzand ko`chadaqolib ketishi mumkin.

Ayrim farzandlarning o'zlari ota-onalaridan voz kechadilar. Bu haqida asosiy sabablar ko'rsatilib, vasiylik qiluvchi shaxs bilan kelishgan holda tegishli tashkilotlarga murojaat qiladi. Agar hokimyatlar qoshidagi voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiya arizani asosli deb topib, muayyan choralar taklif etib, da'voni qondirsa, ularning qarori amalga oshiriladi. Bunday voqealarni ko'plab misol keltirish mumkin.

Yana bir oila-bu er-xotin nikohi tugatilgan oilalar. Oiladagi har qanday o'zgarish bolada ma'lum bir iz qoldiradi, xoh u yaxshi bo'lsin xoh yomon. Bunday holatlarda tevarak-atrofdagilarning o'rni beqiyos. Sababi oiladagi salbiy o'zgarish bolada katta o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bolaning jinoyatchi bo'lishida, uning qonunga nisbatan ijobiy yoki salbiy yondoshishida ota-onasining, ustozlarning tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VI-bo'lim, XV-bobi "Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari" deb ataladi. Kodeksga binoan 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga quyidagi asosiy jazo qo'llanilishi mumkin:

- Jarima;
- Axloq tuzatish ishlari;
- Qamoq;
- Ozodlikdan mahrum qilish;

18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga qo'shimcha jazolar tayonlanishi mumkin emas.

Jinoyat Kodeksining 51-modda II-qismiga binoan o'lim jazosi 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin emas. 2008 yildan boshlab respublikamizda umuman o'lim jazosi Jinoyat Kodeksidan olib tashlanadi.

Jarima – bu jinoyat qilgan shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarima faqat 16 yoshga to'lgan voyaga yetmaganlargagina eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi – mehnatga qobiliyatli, voyaga yetmaganlarga o'z ish joylarida o'tash, aybdor hech qaerda ishlamayotgan yoki o'qimayotgan bo'lsa boshqa joylarda, u yashab turgan tuman, shaharlarda bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi.

Qamoq – voyaga yetmaganlarga bir oydan uch oygacha muddatda qo'llaniladi. Ozodlikdan mahrum qilish – bu voyaga yetmaganlarga nisbatan 6 oydan 10 yilgacha muddatga tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish 13 yoshdan boshlab qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 17-moddasiga ko'ra jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar har qanday jinoyatlari uchun javob beradilar. Jinoyat sodir etgunlariga qadar 13 yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganliklari uchun javobgarlikka tortiladi.

14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar quyidagi jinoyatlarni sodir etsa javobgarlikka tortiladi: qasddan odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish; qasddan badanga og'ir shikast etkazish; qasddan badanga o'ta og'irlikda shikast etkazish; kuchli ruhiy holatida badanga qasddan og'ir yoki o'ta og'irlikda shikast etkazish; nomusga tegish, shahvoniy nafsini buzuvchi shakllarda qondirish, insonni og'irlash; bosqinchilik; tovlamachilik; talonchilik; og'irlik; mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish; ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar qilish; o'qotar qurollar; o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlovchi uskunalarni qonunsiz egallasg; radioaktiv materiallarni qonunsiz egallash; temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositalarini va ma'lumot yo'llarini ishdan chiqarish; transport vositalarini va ma'lumot yo'llarini ishdan chiqarish; transport vositalarini olib qochish; giyohvandlik moddalarini va kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarni noqonuniy yo'llar bilan egallash; bezorilik (Jinoyat Kodeksining 275-moddasi, 2.3-qismlarida ko'rsatilgan harakatlar kiradi.)

Bugungi kunda bolalar orasida og'irlik sodir etish holatlari tez-tez uchrayib turadi va shu bois ham bu muammoni har bir aniq holatda jiddiy tarzda o'rganib

chiqish talab qilinadi. Bunda bolalarning yosh va individual xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim. Masalan, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar o'g'rilik qilishi, yolg'on gapirishi mumkin. Ba'zida bolalar ota-onasidan «yo'q», «mumkin emas» kabi javoblarni eshitishdan xavfsirab, o'z hayotiga doir xatti-harakatlarga ruxsat so'ramaslik uchun yolg'on gapiradi. Birovning narsasini olgan har bir bolani ham o'g'ri deb bo'lmaydi. 5-6 yoshgacha bolalar o'zining va begonaning narsalari o'rtasidagi farqni to'liq anglab etmasligi mumkin. Bolalar sodir qilgan o'g'rilik nima uchun, ayniqsa, u sistemali o'ta og'riqli holatdir. Bolalardagi bu kabi og'ish ota-onalarni qo'rqitish va turlicha namoyon bo'ladigan ojizlik reatsiyasini keltrib chiqaradi. Bu kabi holatga duch kelgan ota-onalar ko'pincha bolani, shu hatti-xarakatga undagan sababni so'rab ham o'tirmay, jismonan jazolashadi. Biroq bunda ota-onalar “bolalar o'g'riligi” kattalarnikidan farq qilishini bola hali qanchalik yomon ish qilayotganini to'liq anglab etmasligini yodda tutishlari kerak. Bola tasavvurida, u shunchaki o'ziga yoqqan narsani oladi, xolos. SHunday bo'lishi ham mumkinki, bola begonalar narsasini olish mumkin emasligini anglab etadi, ammo shaxsning irodaviy sifatleri hali rivojlanmagani bois e'tiborini tortgan o'yoinchoqdan voz kecholmaydi, uni egallash fikridan qayta olmaydi va o'g'rilik qiladi. Ota-onalar bolaning xulqiga munosabati bilan unga yaxshi yoki yomon ish qilganini bildiradilar. SHu sababdan, o'z bolasini birovning narsasini olgani uchun jazolashdan avval, ota-ona uning yaxshi va yomon harakatlarini farqlay olishiga ishonch hosil qilishi lozim. Aks holda qo'llangan jiddiy jazo bola ruhiyatiga jiddiy jarohat yetkazishi, bola o'zi bilan o'zi bo'lib qolishi, tegishli xulosalar chiqara olmasligi mumkin.

Bu bilan bola xatti-harakatiga bee'tibor bo'lishga chaqirmoqchi emasmiz, biroq unutmaslik lozimki, o'g'rilik sabablari turlicha bo'lishi mumkin. SHunday oilalar borki, turli sabablarga ko'ra bola ota-ona e'tiboridan tashqarida qolib ketadi, ota-ona bola haqida faqat sirtidan g'amxo'rlik qiladi (ediradi, kiydiradi), bola ixtiyori esa o'zida bo'ladi. Uning ma'naviy ehtiyojlari, axloqi va qiziqishlariga e'tibor berilmaydi, ustiga-ustak – uning yurish-turishi, o'qishi nazoratsiz qoladi. Ilk marta mayda o'g'rilik qilgan bola ko'proq ota-ona e'tiborini

tortmoqchi bo'ladi va ular reaksiyasini kutadi. Bolani qoralashdan oldin uni o'g'rilikka nima undayotganini tushunishga urinmoq lozim. Ko'p hollarda bu muammo ota-onaning farzandini xatti-harakatlariga e'tiborsizligi oqibati bo'lib, bola shu yo'l bilan atrofdagilarni o'ziga e'tibor qaratishga majbur qiladi. Biroq u o'zining jazosiz qolishini bilsa, o'z yomon ishi takrorlashi, uni jazolashlari mumkinligiga shubha ham qilmasligi mumkin. Bola bilan nima sodir bo'lsa-da, undan yuz o'g'irmaslik, aksincha o'zini o'nglab olishiga imkoniyat berish kerak.

CHunki keyinchalik bola o'sishi bilan o'g'rilik muammosi murakkablashib boradi, kichik bolalikdagi tasodifiy epizod yoki xato o'spirinlikda (12-16) anglab qilingan harakat, hatto bolaga bolalik va o'smirlilik davrida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan zararli odat tusini oladi. Bu yoshda ota-onaning va yaqinlarining shaxsiy namunasi xulq-atvor reaksiyalari va xarakterga oid xususiyatlarning ma'lum bir stereotipi shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Nemis psixologi Kurt Levinning ehtiyojlar dinamik nazariyasiga ko'ra, insonning butun hayoti qandaydir "psixologik maydonda" o'tib, insonni o'rab turgan predmetlar unga jalb etuvchi va uzoqlashtiruvchi ta'sir o'tkazadi (K.Levin terminologiyasida predmet valentligi). Bunda predmetlar u yoki bu darajada insonda mavjud ehtiyojlarga bog'liq holda ta'sir etadi. Inson predmet bilan hatiy makonda qanday munosabatda kirishishiga ko'ra K.Lekin irodaviy va maydonga oid xulq – atvorni farqlaydi. Irodaviy xulq-atvor maydonda mavjud kuchlarni engishda namoyon bo'lsa, maydonga oid xulq-atvor, inson – maydon ta'siriga berilishi, undan yuqori bo'la olmasligi bilan xarakterlanadi.

Oddiy misol keltiramiz: avtobusda bola yonida turli xil chiroyli toshlar yopishtirilgan yorqin rangli sumka ko'targan ayol turibdi. Bola uni ushlab ko'rgisi keladi. SHu tariqa bola o'zini tortgan ob'ekt maydoniga tushadi. Biroq u buni qilish mumkin emasligini biladi. Bola havasini engi olmay sumkaga yopishsa maydonga oid xulq-atvor namoyon bo'ladi, kuchli xohishga qaramay, unga tegmasa, irodaviy xulq-atvor haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Bola baribib, sumkaga tegib, o'ziga yoqqan toshni olmoqchi bo'lsa, bolaning individual xususiyatlariga irodaviy xulq-atvor jarayonlarining

tormozlanishi va kuchli ifodalangan maydonga oid yoki vaziyatli xulq-atvorni kiritish mumkin. Bola o'z harakatlarini qiyinchilik bilan ongli boshqaradi va har safar u yoki bu predmet ta'siri ostiga tushib qolishi mumkin.

Albatta, yuqoridagi xatti-harakatlar sabablari faqat kuchli ifodalangan maydonga oid xulq-atvor emas, balki bola axloqiy ongi etarlicha rivojlanmaganidir va bu holat bolaga shu kabi ish tutish imkonini beradi. SHubhasiz, 7-8 yoshli ko'plab bolalar hatto kichikroq yoshdagilar ham boshqaning narsasini olmaydi, zero bu axloqiy me'yor unga «ona suti bilan kirgan». Biroq ko'plab bolalar axloq masalalariga umuman e'tibor berilmaydigan oilalarda tarbiya oladilar. Ular ko'pincha kattalarning ishxonadan biror nimani olib kelishlarini oddiy hol deb bilishlari va buni muhokama etilmaydigan narsa deb qabul qilishlarining guvohi bo'ladilar. Bu kabi sharoitda katta bo'lgan, impulsiv xulq-atvorga moyilligi bo'lgan bolalar o'z xatti-harakatiga beparvo bo'ladilar, oqibatlarini o'ylab o'tirmaydi va fikr yuritmaydi, o'g'rilik deb atash mumkin bo'lgan ishni qilish uning uchun qiyin bo'lmaydi ham.

YUqorida keltirilgan xatti-harakatni o'g'rilik deb bilmasdan, bolaga ko'ngilsiz xususiyatlarini engishga yordamlashilsa, uning shaxsi va axloqini rivojlantirilsa, bolaning rivojlanishida garchi bunga zamin bo'lgan bo'lsa-da, u asotsial yo'ldan bormasligi ehtimoli ko'proq.

Oilaning pedagogik nuqtai nazari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Rumin olimlari fikricha, ota-onalarning tarbiyaviy vositalarga oid munozara, kelishmovchiligi er-xotin munosabati yaxshi bo'lgan oilalarda ham noto'g'ri xulq-atvor yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Polshalik olimlarning fikricha, tarbiyada xato metodlardan foydalanish bolada xafalik tuyg'usi, tushkunlik holati yuzaga kelishiga, uning ota-ona shaxsiga qarshilik va tajovuz qilishiga aylanishi mumkin. SHu asosda ota-ona va farzand o'rtasida keskin nizolar yuzaga keladi, munosabatlar buziladi, oqibatda o'g'rilik, uydan qochish va shu kabi hodisalar sodir bo'ladi.

Ota-onalarning bolalar o'g'riligi muammosiga duch kelmasliklarining oldini olish uchun ota-onalarning oiyasi, ma'naziy ongiga, oilaga karatish

lozim. Axir oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U shaxsning psixologik va ijtimoiy xossalari shakllanishiga ko'maklashadi. Ota-ona va yaqinlarining shaxsiy namunasi, bolaga tarbiyaviy ta'siri birinchi darajali ahamiyatga ega. Bolalik va o'smirlik davrida xulq-atvorning buzilishi va salbiy odatlarning yuzaga kelishiga qator omillar belgilovchi ta'sir etadi. Bola oila a'zolari bir-biri bilan iliq emotsional bog'liq bo'lgan oilada o'ssa (asotsial kompaniya) nomaqbul muhit unga nomaqbul (uyg'unlashmagan) oilada o'sgan bolaga o'tkazgani kabi ta'sir o'tkaza olmaydi.

Uyg'unlashgan munosabatlar, odatda, ota-ona, buvi va bobolar bolani ma'naviy e'tiborsiz qoldirmaydigan va o'z namunasi bilan bolaga nima qilish mumkin va nima qilish mumkin emasligini tushuntirishga intilgan oilalarda yuzaga keladi. Zero, yuqorida aytilganidek, bola, avvalo, ota-onadan o'rnak oladi. Ota-onaning xulqi, ijtimoiy-axloqiy normalari va ma'naviy tarbiyasi bola rivojlanishi, tarbiyasi va albatta, xatti-harakatida iz qoldiradiki, u bolaning keyingi rivojiga ta'sir etmasligi mumkin emas. Bolaga oilada etarlicha vaqt ajratilsa va ota-onalar tomonidan ma'naviy va huquqiy qarashlar, bolani xatti-harakati: maktabga borgan-bormagani, dars tayyorlagan-tayyorlamaganini, kim bilan o'ynashini nazorat qilish bilan birga shakllantirib borilsa, u holda bola ota-onasi qo'llab-quvvatlashini his qiladi va boshqaning narsasini olish unga kerak bo'lmaydi. Chunki u birovning narsasini olish mumkin emasligini, shunday qilgan taqdirda jazolanishini biladi. Va oxir-oqibat bolada o'zini salbiy xulq bilan namoyon etishga ehtiyoj bo'lmaydi.

Ota-onalaridan biri bo'lmagan, bola bilan emoqional aloqa o'rnata olmagan o'gay ota yoki ona bo'lgan oilalar ham bor. Nokomil oilalarga yuqoridagilar bilan birga ichki birdamlik munosabati» bo'lmagan, hayotiy muammolarni hal etishda bir-birini tushunmaydigan, oila a'zolaridan birlarining boshqalari ustidan hukmronligi haddan ziyod bo'lgan, emotsional ilqlik yo'qligi nizoli vaziyatlarga tez-tez sabab bo'ladigan oilalarni ham kiritish lozim. Bunday holat bolaning o'zini tashlab qo'yilgan va yolg'iz deb his etishiga olib keladi. Bolaga birovning narsasini so'roqsiz olish yomon ish ekanini tushuntiradigan kishi topilmaydi.

SHunday oilalar borki, ota yoki onaga ortiqchalik qiladi, ayniqsa oilada boshqa bola doimo ota-ona mehridan baxramand bo'lsa, bolada bu kabi emotsional inkor etish hissiyotiga beriluvchanlik, xafalik va odamovilik rivojlanishiga sabab bo'lib, unda yomon xatti-harakatga moyillik uyg'onadi. CHunki bola u nima qilishidan qat'i nazar unga avvalgidek befarq munosabatda bo'lishlarini yaxshi biladi. Destruktiv me'yorlar orqali o'zini namoyon etish - yordam so'rab xitob qilishga, o'ziga e'tibor qaratishga intiladi.

Ko'rinib turibdiki xulqidagi buzilish va yomon odatlarning yuzaga kelishi sabablari xilma-xil, biroq, odatda, ular bir-biri bilan bog'liq, kompleks tarzda amal qiladi. Ko'pincha xulqdagi buzilish va o'g'rilik sodir etishga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi bolaga kichik maktab yoshidagi noto'g'ri munosabat, uning kichik shaxsiy muammolariga e'tibor etishmasligidan sodir bo'ladi. Bu esa kattaroq yoshda xunuk oqibatlarga olib keladi.

Bunday holatning oldini olish uchun bola bilan aloqani o'rnatish, o'zaro ishonch ruhida suhbat uyushtirish, yolg'iz suhbatlashish lozim. Ammo va'z o'zaro o'qimasdan, ishonch uyg'otish kerak. Bolaga xatti-harakatining axloqiy mazmunini tushuntirish va boshqalar (o'qituvchilar, ota-ona va jabrlanuvchi) ning sodir etilgan harakat uchun u bilan baravar xafa bo'layotganlarini yetkazish lozim. Bu o'g'rilikni oldini olishning eng yaxshi yo'lidir. Kattalarning bola bilan gaplashishlari, o'z muammolari bilan o'rtoqlashishlari bolaga uni tushunishga chin dildan urinishayotganini anglatadi. Bola katta odamnig, Sizning xafa ekaningizni, aslida uni yaxshi bola deb bilishingizni his etish lozim.

Bola bilan o'g'rilik muammosini hal etayotib ma'naviy ong har bir inson o'y-xayoli va faoliyatini keng belgilashini unutmaslik lozim. Uni o'zganing mulkini hurmat qilishga, o'zinikini asrab avaylashga o'rgating. Bola ma'naviy xulqning asosiy qoidalarini oilada o'zlashtirishini unutmang. SHuni yodda tutish lozimki, bolaga uni koyiydilar, yoki erkalaydilar - mutlaqo farqi yo'q, unga faqat ota-onalarining, atrofdagi kattalarning e'tibori, iliq munosabati zarur, xolos.

II-BOB. Voyaga yetmagan o'smirlar xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash – psixologik muammo sifatida.

2.1. Voyaga yetmagan o'smirlar jinoyatchiligi muammosining psixologik jihatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Voyaga yetmaganlar ishi bilan hug'ullanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish, jinoyatchilik va jamiyathga qarshi boshqa hatti-harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan aniq choralar belgilangan bo'lib, bu jinoyatchilikni oilaviy munosabatlar va shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlari tizmidagi o'zaro uzviy aloqasi doirasida o'rganishni taqazo etadi. Delinkventlar va ijobiy xulqli o'smirlarning oila sharoiti o'rganilganda, delinkventlarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Jinoyatchilikning kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillarmuammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko'rsatishicha, ikki o'zaro bog'liq omil orasidagi; a) funksional yoki xulq-atvorga to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ta'sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar va b) bevosita ta'sir qiluvchi, o'zida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirgan tizimli jabhalarni ajratish mumkin. M'lumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining o'ziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida o'rin tutadi va bu boaning ijtimoiylashuviga ta'sir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartib-intizom tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan delinkventlar va tajavuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari o'rganilganda, ota-onaning kayfiyatiga ko'ra, ko'p hollarda qattiqo'llik, jazolash, ota-onalik mehrining "tansiq"ligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan. Biroq bu g'ayriijtimoiy rivojlanishga sabab bo'luvchi tarbiya usullari haqiqiy baholash mezonini uchun to'liq asos bo'la olmaydi. Tarbiya ta'sirining uzluksizligi, usuli va uning mohiyati atrofdagi ma'lumotlarni umumlashtirib, ayrim yondashuvlarda jazo va rag'bat usullari samarali ekanligi, kuch ishlatishdan ko'ra, kattalik mavqei kuchi, jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan jazolash, tanqid va qo'rqitish, moddiy manfaatlardan mahrum qilish, mehr tanqisligi, jismoniy kuch ishlatmay turib

bolasining xulq-atvori boshqalar uchun keltirishi mumkin bo'lgan zararni xaspo'shlash orqali tushintirish kabilarning quvohi bo'lishi mumkin. Delinkvent xulqli farzandi bor oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida rad etilganlik va befarqlik kabilar ko'proq ko'zga tashlanadi. Longityud tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, ota-ona orasidagi doimiy nizolar, urush-janjallar, o'zaro xusumat, shunigdek, mustahkam bo'lmagan nikoh delinkventlar xulqida yoshligidanoq o'z asoratlarini ko'rsatadi. Jinoyatchilarning ota-onalarida jiddiy ijtimoiy nuqsonlar kuzatiladi. Bunday ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy tarbiyasiga, ularga nisbatan kam e'tibor beradilar. Ayni vaqtda farzandlar tomonidan ham shunday munosabat kuzatiladi va hakazo. Ushbu holatlarga sof psixologik nuqtai nazardan e'tibor berilsa, har qanday huquqbuzarlik, har qanday jinoiy faoliyatning alohida turi sifatida talqinqilinib, unda inson ijtimoiy faolligini belgilovchi va o'ziga xos qonunbuzarlik shaklida ifodalnuvchi uning psixik holati, shaxsning motivatsion jabhasi, individual-psixologik sifatlari, psixikasining xususiyatlarini, subektning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatlarida o'z ifodasini topadi. S.L.Rebinshteyn fikricha, "Inson faoliyatining o'ziga xos xususiyati uning anglanganligi va maqsadga qaratilganligidir", zero, unda inson o'z maqsadlarini amalga oshiradi, o'z fikrlari va g'oyalarini haqiqatga aylantirishi uchun harakat qiladi. Faoliyatda inson o'zini shaxs sifatida namoyon etadi va uning psixik sifatlari hamda shaslilik xususatlari ifodalanadi. Faoliyatning alohida belgisi uning predmetliligi (o'z predmetiga egaligi) hisoblanib, ya'ni har qanday faoliyat, hattoki, qonunbuzarlik ham aniq maqsadga yo'naltirilgan o'zining to'liq ma'naviy mazmuniga egadir. Faoliyatning subekti bo'lmish inson ijtimoiy faoliyatida ham faol ishtirok etib, ijtimoiy qadriyatlar tizimi va o'zgalarga nisbatan muayyani yondashuvga ega bo'ladi. Ushbu qonuniyat bosqichida faoliyat yangi maxsus ko'rinish sifatida xulq-atvorga aylanadi.

Shunday qilib, xulq-inson xatti-harakati, atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi jarayoni, uning tashqi (xatti-harakat) va ichki (psixik) shartlangan faoliyatning tashqi ifodalanishidir. Xulqda jamiyat tomonidan qabul qilingan urf-odatlar, axloqiy, ma'naviy va huquqiy me'yorlar o'z ifodasini topadi. Sub'ektning

shaxslilik xususiyatlari uning xulqiga ko'ra belgilanadi. Jinoiy xulqda ham yuqoridagi jihatlarning barchasi ishtirok etadi, faqat uning shart shundaki, jinoiy xulq huquq me'yorlari bilan nizoga kirishadi. Jinoiy xulqning g'ayriijtimoiy yo'nalganligini jinoiy xulq sodir etilishidagi turli shakldagi aybdorlik, jinoiy g'arazning amaliy tatbiqi, maqsadga erishish vositasini tanlash, qarorga kelish, motivatsiya jarayonlarini tahlil qilish orqali aniqlandi. Faoliyatning birligi harakat hisoblanib, uning yordamida u yoki bu faoliyat amalga oshiriladi. Harakat umumlashmasi muayyan faoliyat turini tashkil etadi. Harakatlarning asosida maqsad paydo bo'lishi bilan subektning motiviga qiziqishlar va turli ehtiyojlar ko'rinishidagi istak yotadi. Shunga ko'ra motivlarda individning istaklari ifodalanadi. Alohida harakatlarning tarkibiy qismlariga ajralishni S.L.Rebinshteyn "xususiy harakatlar" deb ataydi. Masalan, jinoiy kodeksda o'ziga xos "xavfli xulq" atamasi qo'llaniladi.

Ma'lumki, ehtiyojlar shaxs ontogenezida ichki qayta qurilishlarga uchraydi. Shaxsdagi ayrim ehtiyojlarning buzilishi, ularning shakily o'zgarishiga va o'zaro hamohanglikning etishmasligiga olib keladi, bu esa buzilgan ehtiyojlarning ustunligini ta'minlaydi. Bunda qonunbuzarlarning ehtiyoj doirasidagi muvozanati yo'qoladi, motivlar kurashida, maqsad va faoliyat usullarini tanlashda salbiy vaziyat vujudga kelib, "og'irlikka" ega buzilgan ehtiyoj tomon og'adi. So'ngra ehtiyojning qonunga xilof xulq-atvor motiviga o'tishi kuzatiladi. Qayd etish lozimki, aynan bir ehtiyoj turli insonlar tomonidan turlicha anglaniladi. Muayyan bir shaxsning ehtiyojga qanday ma'no, mazmun kasb etishiga binoan u harakatlantiruvchi kuch (motiv)ga aylanadi yoki, asta-sekin o'z qiymatini yo'qotib boradi va oqibatda so'nishi mumkin.

Xuddi shu bois, ba'zan hirs-havasning niqoblanishi natijasida jinoyatning "sirli" motivini oydinlashtirish qiyinlashadi. Masalan, sodir etilgan jinoyat ishtirokchilaridan eng ko'p manfaatdor shaxsni ajratish, gumon qilinayotganlarning qiziqishlari va ehtiyojlari darajasini aniqlash, ularning jinoyat doirasidagi statusi va hakazolar kabi bir qator savollarga javob topishda qiyinchilik tug'diradi.

G.To'laganovanong fikricha, ba'zi hollarda ayblanuvchilar o'z ayblarini bilsalar-da, lekin harakatlarining asl mohiyatini berkitishga yoki oqlashga uringan holda (fazilatli) motivlarni o'zlashtirib olishga harakat qiladilar – bu o'ziga xos psixologik muhofaza mexanizmining bir ko'rinishidir. Shuningdek, jinoyatchilar o'zini-o'zi baholashning ikki jihati mavjud bo'lib: a) o'zi uchun (“men”ga xos), b) o'zgalar va atrofdagilar, shu jumladan odil sudni chalg'itish, jazolash usullarini yumshatish maqsadidagi (ideal “men” uchun) axloqiy-psixologik funksiyani ko'rish mumkin.

Qayta tiklangan ehtiyojlarning jinoiy xulq-atvorga o'tishida aniq hayotiy vaziyatning o'рни beqiyosdir. Chunki subekt hayotiy vaziyatdan foydalanishdan harakat qilish bilan birga mavjud “faoliyatning ichki shart-sharoitlarini” o'zgartiradi.biz motivatsiyaning bu jarayonida o'ziga xos uchlikni “ehtiyoj-shaxsiy ma'ni-vaziyatni ko'rishimiz mumkin. Bu uchlikning o'zaro uyg'unligida faoliyat motivi “vaziyatga xos rivojlanuvchi motivatsiya” tarzida shakllanib oradi.Ushbu holat – kriminogen vaziyat deyiladi.

Motivlarning shakllanishida, maqsad qo'yishning psixologik mexanizmlari katta ahamiyatga ega.Harakat maqsadi motivlar bilan o'zaro solishtirilganda, uning o'z predmetiga egaligi yaqqol ko'zga tashlanishi tufayli farqlanadi.Shaxsning ehtiyojlari, intilishlari, qiziqishlari va motivlari uning faoliyati maqsadlari bir-biriga bog'liqligi bilan uyg'unlashadi.

Shunday qilib, jinoiy xulq-atvor mexanizmlari tahlilida quyidagi omillar: subektga xos individual-psixologik, individual-tipologik xususiyatlar, uning dunyoqarashi, qadryatlari, yoshlarning kriminogen vaziyatga tushguniga qadar yashagan ijtimoiy-psixologik muhit kata ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga qodir, jismoniy va ma'nan yetuk avlodnikamolga yetkazishda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ezgu- maqsadlar Prezidentimizning “Farzandlarimiz bizdan ko'ra bilimli, - kuchli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart!” degan so'zlarida mujassamdir.

Asosiy qonunimizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar davlat himoyasida ekanligi ta'kidlangan. Jinoyat va jinoiy protsessual qonunchiligida ham ularning ijtimoiy, ruhiy, fiziologik xususiyatlari e'tiborga olinib, ular tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarga baho berishda muayyan imtiyoz va engilliklar berilgan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarga kata ishonch bildirilgan va ularning chuqur bilim olishlari, komil inson bo'lib ulg'ayishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ammo guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi, ana shunday yuksak e'tibor mohiyatini anglab etmayotgan yoshlarimiz ham uchrab turibdi.

O'smir nega jinoyatga qo'l uradi? Buning asosiy sabablaridan biri oiladagi nosog'lom muhitga borib taqaladi. SHuning uchun xam xar bir ota-ona farzand tarbiyasiga aloxida mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Zero, jinoyat uchun jazo mukarrarliligi - butun dunyoda tan olingan tamoyil. Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettarishiga to'sqinlik qilish hamda boshqa shaxslar tomonidan yanga jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ko'llanadai. Jazo tizimida ayrim toifadagi shaxslar uchun nazarda tutilgan engilliklar esa, eng avvalo, tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'smirlik davrida engil-elpi, o'ta emin-erkin hayotga o'rgangan shaxslarda asosan bezorilik va firibgarlik bilan bog'liq xatti-harakatlar ko'p uchraydi. Bu o'zboshimchaliklarning vaqtida oldi olinmas ekan, ulg'ayganida ular katta "ish"larga ham qo'l urishi turgan gap.

"Ko'chat nixolligida egiladi, bola yoshligidan tarbiyalanadi" deyishadi. Masalan, O'tkirbek yoshligidan o'yinqaroq bo'lib o'sdi. Oilada yolg'iz o'g'il bo'lgani uchunmi yoki otasiz o'sayotgani sababmi, onasi doimo uning ko'ngliga qarab ish tutardi. O'tkirbekning tarbiyasidagi bu kemtiklik pand berdi. U 15 yoshidayoq jinoyat ko'chasiga qadam qo'ydi. Oliy Majlis Senatining amnistiya to'g'risidaga qarori e'lon qilingani joniga oro kirib, jazodan ozod bo'ldi.

Biroq bundan xulosa chiqarmagan O'tkirbek biror foydali ish bilan shug'ullanishni xayoliga ham keltirmadi. Uning taqdiri onasini ham, qarindosh urug'lari-yu mahalladagilarni ham tashvishga solmadi. Tarbiyasi o'z holiga

tashlab qo'yilgan o'smir yana jinoyatga qo'l urdi. SHaharda yashovchi xolasinikiga onasi bilan mehmonga kelgan O'tkirbek hamma uxlab yotgan mahal 500000 so'mlik uyali telefon apparatini o'g'irlab, juftakni rostlaydi. Qarindoshlari oldida yuzi shuvit bo'lib uyga qaytgan onasini "Telefonni holamga qaytarib berdim" deb aldab, aslida uni bozorda sotib yuboradi. Tez orada bu jinoyat fosh bo'lib, telefon egasiga qaytariladi. Temir panjara ortida o'tirgan O'tkirbek sud hay'atiga qilmishidan qattiq pushayomonligini aytib, kelgusida yaxshi inson bo'lishga so'z beradi. Buni inobatga olgan hay'at O'tkirbekka tuzalishi uchun yana bir bor imkoniyat berishni lozim topdi. Tayinlangan ikki yil ozodlikdan mahrum etish jazosi Jinoyat Kodeksining 72-moddasiga asosan shartligi aylatirilib, bir yil sinov muddati belgilandi va unga jaoat tarbiyachisi tayinlandi.

Jasurbek va Dilmurod ham oson pul orttirish ilinjida o'g'irlikka qo'l urishdi. Qarshi shahridagi o'zlari o'qiydigan aktabga tunda yashirincha kirishib, 3 mln. so'mlikdan ortiq kompyuter jamlanmasi, DVD va proektorlarni olib chiqib ketishgan. Ammo buzoqning yugurgani somonxonagacha deganlaridek, ular vaqtida ushlandi va belgilangan tartibda jazoga tortildi.

Bu ikki o'spirin sud zalida qilmishidan pushaymonligini, o'g'irlangan narsalar qaytariilib, yetkazilgan zarar tshliq qoplanganini bildirib, suddan engillik berishni so'radi.

Sud ularga jazo tayinlasha aybga iqrorik va pushaymonlini jazoni engillashtiruvchi holat deb topib, jinoyatni g'araz va past niyatlarda sodir etganligini jazoni og'irlashtiruvchi holat deb baholab, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olib, jarima solishni hamda kelgusi xati-harakatlarini nazorat qilib turish uchun jamoat tarbiyachisi tayinlashni lozim topdi.

Xalqimizga xos bag'rikenglik qonunlarimizda ham o'z aksini topgan.

Misol uchun, Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarning javobgarligi aohida bo'limda berilgan. O'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga kodeksda belgilangan 8 turdagi asosiy jazodan faqat tasi qo'llanishi mumkin, qo'shimcha jazolar tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda voyaga

yetmaganlarga tayinlanishi mumkin bo'lgan jarima miqdori, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining muddati qisqartirilgan.

Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatga qo'l urgan, ehtiyotsizlik oqibatida yohud qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 60-bobida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishning alohida protsessual tartiblari belgilangan. Bu haqiqatni aniqlash, voyaga yetmaganlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud ishlari yurituvchining profilaktik ta'siriga doir kafolatlarni o'z ichiga oladi. SHuni e'tiborda tutish lozimki, ushbu qoidalar sud ish yurituviga oid umumiy qoidalarining o'rnini bosmaydi, balki qo'shimcha kafolatlar sifatida xizmat qiladi.

Xususan, sudlar voyaga yetmagan shaxsning ishini ko'rishda uning shaxsini ifodalovchi ma'lumotlar bilan birga jismoniy rivojlanishi va salomatligini, yashash sharoitini, o'sayotgan muhiti, oilasi va atrofdagilarga munosabatini, tarbiyasini, jnoyat sodir etish katta yoshdagilarning ta'siri bor-qo'yiligini aniqlashlari zarur.

Ma'lumki, 2008 yil 1 yanvardan boshlab mamlakatimizda o'lim jazosi bekor qilinib, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi joriy etildi. Bundan buyon bu turdagi jazo faqat ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi hollarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi (bu xotin-qizlarga, 18 yoshga yetmaganlarga va 60 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanmaydi).

Farzandi sog'lom, har jihatdan komil inson bo'lib ulg'ayishini im ham istamaydi deysiz. SHu ezgu maqsad yo'lida jamiyatimizdagi barcha kuch va imkoniyatlarni muvofiqlashtirish lozim. Zero, yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish yurt va millat kelajagi to'g'risida qayg'urmoq demakdir.

2.2. Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda oila, mahalla, maktab hamkorligi masalalari.

Har qanday mamlakat o'z kelajagini bolalar, voyaga yetmagan yoshlartimsolida, aniqrog'i, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazishda ko'rinishi, tabiiydir. Voyaga yetmaganlar esa bog'cha yoshidan to 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir. YA'ni ular hali rasman fuqarolik huquqiga ega emaslar. Ularning huquqbuzarliklari esa shartli tushuncha. SHu sababli bolalarning huquq va burchlari, axloq-odobiga javobgarlikning barcha mas'uliyati kattalar, oila, davlat va nodavlat, jamoat tashkilotlari zimmasiga tushadi. Hozirgi paytda O'zbekiston aholisining salmoqli qismini voyaga yetmagan bolalar va o'smirlar tashkil etadi. Agar kattalarning qarovsizligi -tufayli bu bolalarning o'ndan bir qismi turli darajadagi jinoyatlarga qo'l ursa, jinoyatchilik bir, o'n, yuzga emas, minglab miqdorlarga oshib ketadi. Demak, tabiiyki, hukumatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan barkamol avlod tarbiyasiga qayg'urish, ularning huquqlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish har bir jamiyat, oila, qolaversa, har bir fuqaroning muqaddas burchi, insoniylik mas'uliyatidir. Busiz kelajak haqida so'z ham bo'lishi mumkik emas.

Mamlakatimizda voyaga yetmagan yoshlar muammosiga u yoki bu darajada aloqador bo'lmagan birorta tashkilot yoki shaxsning o'zi yo'q. Biroq bu tashkilotlar va shaxslarning voyaga yetmaganlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda o'z o'rni, ahamiyati, o'ziga xos ta'siri bor. Aytaylik, birorta bekorchi, huquqbuzar yoki diniy aqidaparast o'z manfaatlari yo'lida voyaga yetmagan yoshlar xizmatidan, foydalansa, hatto jinoyatga undasa, bu ham ularga ta'sirning bir, qo'rinishi, afsuski, salbiy namoyon bo'lishidir?!

Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlar qarovsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olishning eng samarali yo'li mahalla, oila va maktabning mustaqkam hamkorligini ta'minlashdan iboratdir. Oila-mahalla-maktab kontseptsiyasi xalqasi esa bu hamkorlikni yanada kuchaytirishga qaratilishi lozim. Bu xalqada biror zanjirni uzish, shubhasiz, bola tarbiyasidagi

nuqsonlarga olib keladi. Masalan, bolaga oilada e'tibor berishsa-yu, mahalla beparvo bo'lsa, u ko'cha-ko'yda noma'qul hatti-harakatlarni sodir etishi mumkin. Chunki u o'z bezoriliklaridan oilasidagilar xabar topmasligini juda yaxshi biladi. Yoki bola maktabga boraman deb uydan, chiqib ketsa-yu, ko'chada daydib yursa, maktab jamoasi bu haqda uning oilasiga xabar bermasa, bu ham bolaning keyingi harakatlarida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Odatda, oilada yaxshi tarbiya olgan bola mahallada ham, maktabda ham o'zini ibratli tutadi. Biroq ba'zan oilada o'zini yaxshi tutib, mahalla va maktabda bezorilik qilib yuradigan bolalar ham paydo bo'ladiki, bu tarbiyada oila - mahalla - maktab kontsepsiyasida birlik yo'qligidan darak beradi. Davlat va jamiyat tarbiyasi esa bog'cha va maktablar, «Mehribonlik» uylari, huquq va targ'ibot organlarining voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'limlari faoliyati misolida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston «Mahalla» jamg'armasi respublika boshqaruvi har yili Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlaridan voyaga yetmaganlarning qarovsizligi hamda huquqbuzarliklarining oldini olish bo'yicha bajarilgan tadbirlar yuzasidan axborotlar olib turadi. Bolalar sporti rivojlantirilib, muhtoj oilalarga moddiy yordam, ularni ma'naviy qo'llab-quvvatlash tadbirlari o'tkazilmoqda. Aholi o'rtasida yuzlab suhbatlar olib borilmoqda. Ayni paytda bu axborotlarda kamchiliklardan ko'z yumish, ularni umumlashtirib va ko'p vaqt oiladagilar ko'z oldida xulosalarga kelish, zaruriy tavsiyalar berishning yo'qligini ham qayd etish lozim. Bu kamchiliklarga barham berish uchun, avvalo, sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini aniq belgilab olish zarur.

Bizningcha, mahallalar boshqaruvida voyaga yetmaganlar bilan ishlash rejalarini davr talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish, oila – mahalla – maktab kontsepsiyasining samaradorligini oshirishda quyidagi takliflardan foydalanish lozim:

1. Mahalla joylashgan hudud shart-sharoitlarini mazkur kontsepsiya nuqtai nazaridan aniq hisobga olish. Masalan, hududida katta bozorlar bo'lgan mahallalarda voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va huquqbuzarlik

imkoniyatlari ko'p bo'ladi. SHuningdek, hozirgi paytda mahallalar uchastkalar, ko'p qavatli binolar yoki ular aralash bo'lgan makonlar, qishloq, ovullardan iborat. Hovli-joylardan iborat mahallalarda milliy an'analarimiz kuchli bo'lgani uchun bolalar tarbiyasini mahalla, maktab miqyosida kuzatish, ular huquqlarini himoya qilish ham ancha engil ko'chadi. Afsuski, ko'p qavatli binolarda, ba'zan odamlar yonginasida yashayotgan qo'shnisining kimligini bilmaydilar, qo'shni bolalarning ko'chada nimalar qilayotgani bilan qiziqmaydilar ham. Bu esa bizni qiynayotgan muammolardan biridir.

2. Mahallalarda 13 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni aniq bilish. CHunki bu yoshgacha bo'lgan , bolalar agar biror sabab bilan adashib ketmasalar, har qanday sharoitda o'z uyini tashlab ketmaydi va ko'p vaqt oiladagilar ko'z oldida bo'lishadi. O'qimay, ishlamay yurgan o'smirlarni aniq hisobga olish. Bolalarning qarovsizligi va ishsizligi sababini, ya'ni oiladagi muhitni aniklash, Bola umuman qarovsiz bo'lsa, "Mehribonlik" uylariga joylashtirish.

3. Ota-onalar, bilan mustahkam aloqa o'rnatish. Bu muammoning engasosiy qismidir. Negaki, bozor munosabatlari sharoitida aholining tabaqalanishi kuchayib bormoqda va bu narsa bolalar psixologiyasida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Nafaqat nochor hamda muhtoj, balki har tomonlama to'kis oilalarni qarovsiz qolishi, ular o'rtasida huquqbuzarlikning uchrashini ham kuzatdik. Birida bola muhtojlikdan yomon yo'lga kirib ketsa, ikkinchi holatda erkatoylik tufayli to'g'ri yo'ldan og'adi. Ammo har ikki holatning ham o'zagi bitta-oila, qolaversa, mahalla, maktabdagi e'tiborsizlikdir. Oila- mahalla - maktab hamkorligini mustahkamlashda mahalla posboni diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari, xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi raisalari, maktab kengashlari, ayniqsa, ota-onalar majlislari, jamoatchilik nazoratining o'rnini juda yuksakdir. Agar mahallalarda oila - mahalla - maktab hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilsa, ish hech qachon sudgacha etib bormaydi profilaktika nozirlari ijobiy ma'noda "ishsiz" qoladilar.

4. Voyaga yetmaganlar bilan ishlash, mahalla - oila - maktab hamkorligini ta'minlashda psixologik jihatlariga doimo e'tibor berish zarur. CHunki "sening

bolang yomon” degan ta’rif hech bir ota-onaga xush kelmaganidek, doimiy tanbeh eshitish eng odobli bolaga ham, eng odobsiz bolaga ham yoqmaydi.

5. Bizningcha, voyaga yetmaganlar o’rtasida qarovsizlik va huquqbuzarlikning ro’y berishiga oiladagi iqtisodiy muhit va notinchlikdan tashqari ota-onalar, mahalla boshqaruvi, maktab xodimlarining bu borada o’z huquqlarini yaxshi bilmasliklari ham sabab bo’lmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Giyohvand moddalarni nazorat qilish Davlat komissiyasining 2006 yilga mo’ljallangan ish rejasining «Mahalla» jamg’armasi tizimiga tegishli bandlari ijrosini ta’minlash maqsadida joylarda bir qator amaliy ishlar olib borildi. Respublikamizning 9941 ta mahallalarida aholi va yoshlar bilan Sog’liqni saqlash va Ichki ishlar xodimlari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etildi. YOshlarga giyohvand moddalarni iste’mol qilishning salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida tushunchalar berildi. Respublikamiz viloyatlarida 2006 yil mobaynida giyohvandlikka qarshi bir qator tadbirlar o’tkazildi. Mahalla yoshlari o’rtasida targ’ibot-tashviqot ishlari keng ko’lamda olib borilmoqda. O’zbekiston Musulmonlar idorasi ko’rsatmasiga binoan respublikamizda faoliyat ko’rsatayotgan 2027 ta jome masjidlarida juma ma’ruzalarida mahallalardagi yosh avlodni ruhiy sog’lomlashtirish borasida oila boshliqlariga «Barcha illatlar koni» bo’lgan giyohvandlik moddalarini iste’mol qilish shariat asoslariga ham xilof ekanligi, giyohvandlik faqat uni iste’mol qilgan odamning o’ziga, oilasiga va nasliga emas, balki butun jamiyatga, insoniyatga zarar yetkazishi to’g’risida tushuntirish ishlarini olib bormoqdalar. Mahallalarda hozirgi kunda diniy ma’rifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo’yicha mahalla fuqarolar yig’ini oqsoqollarining 7900 ta maslahatchilari faoliyat ko’rsatmoqdalar. Maslahatchilar mahallalardagi xotin-qizlar bilan ishlash komissiyalari bilan hamkorlikda yosh avlodni ruhiy va ma’naviy tarbiyasi bilan shug’ullanmoqdalar.

2006 yil mobaynida maslahatchilar va xotin-qizlar komissiyalari mahallalarda Sog’liqni saqlash bo’limlari xodimlari bilan hamkorlikda yoshlar

o`rtasida «Giyohvandlik va OITSning oldini olish jamiyat burchi», «Kashandaliksiz yoshlik» mavzularida 1623 tadan ziyod madaniy-ma`rifiy suhbatlar o`tkazdilar.

Bundan tashqari, O`zbekiston Oqsoqollar Kengashi, «Mahalla» jamg`armasi 2006 yil uchun tasdiqlangan Nizomiy vazifalar qatorida respublikamizda ommaviy sport turlarini rivojlantirish, aholining muntazam ravishda sport bilan shug`ullanishini ta`minlash hamda mahallalarda etarli shart-sharoit yaratib berish borasidagi hukumat siyosatini doimiy tarzda qo`llab-quvvatlab, bir qator xayrli tadbirlarni o`tkazishda assiy tashkilotchi sifatida faoliyat ko`rsatdi.

Joriy yil mobaynida «Mahalla» jamg`armasi tashabbusi bilan o`kazilgan sport musobaqalarida 9 yoshdan 16 yoshgacha bo`lgan jami 944709 nafar o`smirlar to`liq va qisman ishtirok etdilar. Xususan, mahalla bolalari o`rtasida tashkillashtirilgan an`anaviy «Futbolimiz kelajagi» respublika turniri musobaqalari (9-10, 11 -12, 13-14, 15- 16) yosh toifasidagi mahalla o`smirlari o`rtasida o`tkazildi. Ushbu sport musobaqalarini o`tkazishdan asosiy maqsad yoshlar o`rtasidagi huquqbuzarlik, jinoyatchilik hamda giyohvandlikni oldini olish, ularni muntazam ravishda sport bilan shug`ullanishlariga jalb qilish havaskorlar futbolini rivojlantirishga hissa qo`shishdir. Mazkur futbol musobaqalarida tuzilgan jamoalar soni 42126 tani tashkil etdi.

Mahallalarda oilaviy sportni rivojlantirish, oilalarda sog`lom turmush tarzini shakllantirish, oila a`zolarini jismonan barkamol, baquvvat va sog`lom bo`lishiga yo`naltirish maqsadida «Sog`lom oila» sport musobaqasi o`tkazib kelinmoqda. 2006 yilda o`tkazilgan mazkur musobaqalarga 65745 ta oilalar jalb etildi. Ishtirokchilar soni 138685 nafarni tashkil etdi.

Azaliy qadriyatimiz bo`lgan, bugungi kunda umuminsoniy qadriyatga aylangan, halollik, insonparvarlik fazilatlarini o`zida mujassamlashtirgan O`zbek kurashini yanada rivojlantirish, yosh avlodni jismonani baquvvat, mustahkam irodali, har tomonlama yetuk pahlavonlar bo`lishiga sharoit yaratish, yoshlar o`rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida III bosqichda «Mahallamiz

pahlavonlari» turniri o`tkazildi. Mazkur turnir 5176 ta mahallalarda o`tkazilib, ishtirokchilar soni 83456 nafarni tashkil qildi.

Mahallalarda ommaviy sport turlarini rivojlantirish maqsadida «SHaxmat va shashka» turnirlari o`tkazildi, SHu bilan birga 2159 ta mahalla fuqarolar yig`inlari turli darajada sport inventarlari va anjomlari bilan ta`minlandi.

Homiylik faqat moddiy yordam emas. Asosiy gap faqat moddiy yordamga bog`liq bo`lganida, bizda voyaga yetmagan yoshlar muammosi bo`lmas edi. Biror bolaga, aytaylik, million so`mlik yoki undan ham ko`proq moddiy yordam berish mumkin. Ammo bu yordam qisqa muddatda tugaydi. Biz voyaga yetmaganlarga to`g`ri tarbiya bersak, bu tarbiya natijasi - uning butun umri davomida eng sodiq yordamchisi, hamrohi, hayotining mazmuni bo`ladi.

Voyaga yetmaganlar uchun mo`ljallangan jazoni o`tash koloniyalaridan qaytgan yoshlarni kundalik hayotga moslashtirish maqsadida mahalla fuqarolar yig`ini kengashlarida tuzilgan yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi, ichki ishlar idoralari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni faollashtirish sezilarli samara bermoqda. Asosiy e`tibor tarbiyasi og`ir yoshlarni zamon talablari darajasida ilm egallashlari, kasb-hunar o`rganishlari hamda jamiyat ravnaqi va davlat mustaqilligini ta`minlashda faol ishtirok etishlari uchun qaratilmoqda.

Ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoyalangan bolalarni huquqiy himoya qilishning samarali usullarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bunday toifadagi voyaga yetmaganlar uchun o`quv-tarbiyaviy sohada quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- ma`naviy-ahloqiy ta`lim va tarbiya berish;
- o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini olishga yordam berish;
- qo`shimcha ta`lim olishga yordamlashish;
- kasbiy ta`lim (mehnat malaka)larini olishni ta`minlash;
- huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlarini o`tkazish;
- tibbiy-ijtimoiy sohadagi xizmatlar.

Bu ishlarni amalga oshirish bo'yicha jamoat tashkilotlari tizimi ham mavjud: «Sen yolg'iz emassan» bolalar jamg'armasi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Mahalla» jamg'armasi bir bo'lib, bu borada ular o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirishlari darkor.

Xulosa o'rnida shunday deyish mumkinki, yurtimizda kechayotgan har bir islohotning zahirida - u ma'naviy bo'ladimi, iqtisodiy bo'ladimi, ma'rifiy bo'ladimi, huquqiy bo'ladimi yoshlar tarbiyasi birinchi o'rinda turibdi. Bu qutlug' ishda oila - mahalla - maktab hamkorligi hamisha beqiyos ahamiyat kasb etib qolaveradi.

2.3. O'smirlik davriga xos depressiv xulqning psixodiagnostik muammolari

Bugunga kelib, o'smir shaxsning dinamik rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy strukturalar tizimi jumaladan, oila, maktab, norasmiy uyushmalarda ham o'zgarishlar ro'y bermoqda, SHuningdek, ba'zan ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan ma'lumotlar ham o'smirlarning emotsional - irodaviy jabhalari hamda qiziqishlar tizimiga ta'sir etib, o'larning xulq-atvorlari va psixikasida ba'zi buzilishlarga ham sabab bo'lmoqda. SHunday buzilishdan biri – depressiya holati bo'lib, tan olish kerakki, to hozirga qadar mazkur tushunchaning mohiyati munozaralidir. Uni kayfiyat taynifi yoki sindrom sifatida yoinki alohida bir kasallik tarzida tushuniladi. Vaholanki, uning asosiy sababi birinchidan, depressiv simptomatika bo'lib, u yoshga oid psixologik xususiyatlarni namoyon qiladi, ikkinchidan, tashqi ifodalanishida “niqoblanganlik” xarakteriga ega bo'ladi. O'smirlarning depressiv holati murakkab tuzilishga ega bo'lib, u: a) maktab dasturini o'zladishtira olmaslik; b) tengqurlari jamoasiga moslasha olmaslik; v) o'ziga hos psixologik muhofaza reaksiyasi kabilarni o'zida mujassamlashtiradi. Ayrim olimlar uning kelib chiqishida stressogei omillarga urg'u berib, o'ziga xos “tsivilizatsiya kasalligi” deb ataydilar. Xususan, B.S.Polozhiy (1996) fikricha, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy chuqur o'zgarishlar shaxsda jiddiy buzilishlarga sabab bo'ladi yoki madaniy hamda ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuv muammolari shular jumlasidandir.

Depressiya bo'yicha, fundamental tadqiqot olib borgan D.M.Prixojan (1996) emotsiyalar rivojlanish asosini tashvishlanish tashkil etishini isbotlayd.

SHuningdek, B.F. Lomov (1994) o'smirdagi ijtimoiy-psixologik jarohat, o'smirning shaxsiyatlilik xususiyatlari shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy krizislar, bu vaziyatning o'smir o'z hayotiy rejalarini shakllantirishiga ta'siri sababli undagi hayotiy vaziyatlar masalasi hamda favqulodda qolgan o'smirning sub'ektivmuammolari va kechinmalari oqibati ekanligani ta'kidlaydi.

Xususan, depressiya-xulq-atvorning umumiy sustligi, kognitiv tasavvurlar va motivatsion jabhada o'zgarishlar kechishi hamda salbiy emotsional fonga ega

bo'lgan affektiv holatdir. Depressiyaning funktsional holati - bu sog'lom insonlarda psixik funktsiyalardagi me'yoriy o'zgarishlardir, lekin uning patologik darajasi ham borki, u psixiatrik sindromlar bilan iborat bo'ladi.

Depressiv holat termini psixik holat guruhini tashkil etib, muayyan tasnifga ega. Masalan: kayfiyat bu individ psixik hayotining ijobiy yoki salbiy emotsional fon sifatida ifodalanuvchi holatidir.

O'smirlik davrida depressiv holatning ikki:

1) salbiy affektni sub'ektiv his etish;

2) organizmning ichki qismida muayyan siljishlar bilan kechuvchi mimika va xulq-atvorda ifodalanuvchi simptomlarni o'zida mujassamlashuvi tashkil etadi.

SHunga ko'ra, depressiyaning differentsial diagnostik diagnozini assoslashda psixiatrik yoki psixologik darajalari tafovutlanadi. Hozirda depressiv o'zgarishlarning diagnostik kontseptsiyasi atroflicha o'rganilgan, biroq o'smirlik davriga xos jihatlari, jumladan, mazkur yoshdagi affektiv fenomenni o'rganish masalalari hali-hanuz to'liq ochildmagan. Depressiv holat uchun dunyo miqyosidagi kasallik klassifikatsiyasi sifatida MKB-10 va DSM-III olingan bo'lib, uning etiologiyasiga ko'ra, depressiv sindromning, yosh va rivojlanish xususiyatlari uning ko'rinishini belgilaydi.

O'smirlik yoshidagi MKB - 10 (kasallikning dunyo miqyosidagi klassifikatsiyasi) - affektiv buzilishlar bo'lib, uning etiologiyasida baholovchi "depressiv epizod" o'zining tashqi ifodasiga ega yoki ega emasligi, somatik va psixotik o'zgarishlar mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar qo'llaniladi.

Kanfer va Nay (1982)lar o'z mulohazalarida, depressiyaning baholash masalalari o'ziga xos imkoniyatlarning muayyan darajasi bor yoki yo'qligi, xulq-atvordagi o'zgarishlar, imkoniyat va ko'nikmalar o'zaro mutanosibligi simptomlarning ifodalanishidagi "yorqinlik"ning mavjudligini depressiv buzilishlarni davolashdan keyingi natijalar bilan solishtirish kerakligini uqtirdilar. Mezzich (1988) ning ta'kidlashicha, qayd etilgan muammoni hal qilishda birinchidan - turli, yoshdagi (10-18 yosh) o'smir o'z holatlarini his-tuyg'ularini, emotsiyalarini turlicha

anglaydi, bu esa uning holatini baholovchi muolajalar natijalariga aa xulosalariga ta'sir etadi. Zero, bu xulqning klinik ko'rinipsh yosh xususiyatlariga xos va mos ekanligiga bog'likdir. Ikkinchidan, kasallik haqidagi ma'lumotlarni faqat o'smirning o'zidan olmay, uning ota-onasi, fan o'qituvchilari, do'st-dugonalari, yaqin qarindosh-urug'laridan ham olish kerak. CHunki o'smir va ota-ona ma'lumotlaridagi nomuvofiqlik (Angold 1983; Bird, 1992), shuningdeq ota-ona va o'qituvchilar orasida ham uchraydi. Odatda o'smir o'zidagi mavjud siptomlarni yashirishga urinadi (Kazdin, 1983). Mazkur nomuvofiqliklar depressiv siptomlar tilini aniqlashtirishning imkoniyatlarini cheklaydi. Odatda, ichki depressiv siptomlar, masalan, aybdordik hissi o'smirlar tomonidan oshkor etilsa, tashqi siptom bo'lmish psixomotor retardatsiya o'zgaralar tomonidan ma'lumot sifatida beriladi, har qanday holda ham ular ayrim simptomlarni yashiradilar (Kazdin, 1983)

Ota-onalarda esa o'z farzandlarining yosh va jins, xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari borasidagi bilimlarning etishmasligi hamda o'z farzandlaridagi salbiy xislatlarni bo'rttirish, ya'ni "salbiy shu'la effekti" ro'y beradi (Treiber va Mabe, 1987). SHunga ko'ra olingan ma'lumotlarni qanday qilib uyg'unlashtirish mumkin, degan savol tug'iladi.

Angold (1987) bunday vaziyatlarda faqat o'smirning ma'lumotlariga tayanish kerak desa, Puig - Antich va gittelmann (1982)lar faqat kattalarning ma'lumotlarini inobatga olish lozimligini ta'kidlaydilar. YAna bir muammo bu vaqt o'tishi bilan kuzatiladigan ijtimoiy o'zgarishlardan "sohort-effekt" paydo bo'lishi hisoblanib, bu aynan, bir depressiv vaziyatdagi ishtirok etgan tengdoshlar guruhida o'xshash fenomenlarni keltirib chiqarishidir. O'smirlik davrida psixogenreaktiv va somatogen depressiv sindromlar katta o'rin tutadi.

Muammoga oid adabiyotlar tahlilida taxminan 75% o'smir patsientlarda psixogen depressiya, 10-45% ida samotogen, faqat 5-10% ida konstitutsional depressiv holat uchrashi xususidagi fikrlar ko'plab uchraydi. Bizning fikrimizcha, o'smirlik davriga xos depressiya simptomatikasida yana o'tish xarakteriga ega etiopatogenetik sharoit ham bor. CHunki odatda, o'smirlarda depressiya paydo bo'lishida birgina sabablar yoki ekvivalent depressiv siptomlar, ba'zan esa, bir

necha patogen omillarning o'zaro ta'siri kuzatiladi. Ushbu ko'p omilli sindromogenezga o'smirlik davrida alohida e'tibor qaratilishi kerak. O'smirlik davri depressiyasining klinik ko'rinishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri satsiodemografik vaziyat: maktab hayoti, salomatlik bilan bog'liq muammolar; psixotrop va narkotik moddalarning qabul qilinishi; g'ayritabiiy xulq, oilaviy va do'stlari guruhdagi o'zaro munosabatlar, oilaviy anamnez, uyqusizlik o'z-o'zidan qoniqmaslik, o'lim vasvasasi qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Spiel (1961) ning aniqlashicha, depressiya fenomenologiyasi yoshga bog'liq bo'lib, o'g'il bolalardan ko'ra, ko'proq qiz bolalar kasallanadilar. Uning fikricha, ushbu depressiv kasallik aynan pubertat davrdan boshlanadi. Masalan, o'smir qanchalik mustaqil va maqsadga yo'nalgan bo'lsa, u shunchalik yolg'izlikka intiladi va bunga qodir ham bo'ladi. Yolg'izlik hissi, shaxsning shakllanishidagi yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, o'smirlarda o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishish, guruhlariga birlashish, kattalardan ololmagan emotsional iliqlikni tengdoshlaridan izlash ehtiyoji yuzaga keladi. O'smirlarga o'z ichki dunyosini ochish quvonchli va hayajonli voqedir. Lekin, u juda ko'p xavotirli va dramatik kechinmalarni keltirib chiqaradi. Ichki "men" o'zini-o'zi nazorat qilish muammosini faollashtirgan holda, tashqi xulq-atvor bilan kelisha olmaydi.

SHu tariqa, ontogenetik rivojlanishning turli ijtimoiy jabhalari va o'smirdagi depressiya, otagina o'zaro munosabatlarining xususiyatlari, ba'zan tengqurlari bilan o'zaro munosabatlarning qiyinlashuvi, salomatlik holati, akademik o'zlashtirishning pasayishi, shaxslilik va xarakterologik jihatlar mazkur kasallik rivojlanishiga turtkidir.

Qayd etish lozimki, o'smirlik davriga xos depressiv holat diagnostikasi multimodal xarakterga ega bo'lib, uni amalga oshirish imkoniyatlari sifatida:

- a) o'smirlarda somatik o'zgarishlarning psixosomatik kasalliklariga o'tishi;
- b) endogen o'zgarishlarning ortishi; v) o'smir shaxsida patologik xarakter

o`zgarishlarining sodir bo`lishi mumkinligi bois, o`smirlardagi depressiv, holatlarni o`rganishga klinik yondashuv;

a) o`smirlardagi mavjud “hayotiy tajribalarning” uning depressiv holati bilan uzviy aloqadorligi; b) depressiv holatlardagi jinsiy tafovutlariig mavjudligi; v) ilk o`smirlik davridayoq depressiv holatlar uchrashining ortishi, o`smirlardagi depressiv holatlarni tushuntarishda unga kognitiv yondashuv;

a) o`smirning nomaqbul oilada tarbiya topishi; b) oiladagi o`zaro munosabatlarning nomutanosibligi; v) o`smirning ota-onadan uzoqlashishi va uning mustaqillikka da`vogarligi; g) ba`zan ota-onadagi psixik o`zgarishlarning o`smirlarda “oynadagi aksi” sifatida takrorlanishi bois oiladagi shaxslararo munosabatlarni aniqlash;

a) o`smirning akademik o`zlashtira olmaslik muammolari; b) o`smirning maktabdan bezishi; v) o`qituvchilari va tengqurlari bilan kelisha olmasligi va hokazolar sabab, o`smirning maktab ta`limi tizimi faoliyatini o`rganish;

a) hayotiy hodisalarning stressogen xususiyatga egaligi; b) o`smirlikning psixologik xususiyatlari; v) yoshga oid xususiyatlarning depressiv holatlar rivojlanishiga o`zaro alokadorlik muammolari o`smir shaxsining individual-psixologik va formal-dinamik xususiyatlarini aniqlashni shart qilib qo`yadi.

SHu bois ham, o`smirlardagi depressiv holat tadqiqoti, nafaqat, patopsixologik va klinik o`rganish yo`nalishlarida olib borilipi, balki, uning pedagogik, psixologik va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilsa, shubhasiz, bunday jihat diagnostik va psixokorrektson shshlarning samarasi uchun xizmat qiladi.

Tajriba-sinov natijalari

Pedagogik diagnostika o'z mohiyatiga ko'ra korrektsion tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida o'smirlarning xulqidagi jamiyat tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, qoidalar va me'yorlardan chekingan nuqsonlarni korrektsiyalash ular to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishni talab qiladi.

“Korreksiya - deb ta'kidlaydi M.Quronov - hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir” (Quronov M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: 2004.-34 b.). Bir qator olimlar (R.S.Nemov, D.V.Olishanskiy, G.Broyer, G.Mattes) “Pedagogik korrektsiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalarda oldin yo'l qo'ygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir”,-deb hisoblaydilar.

Korreksiyalash ta'sirida o'quvchilarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiyaviy masalalar echimi topiladi.

Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi.

Pedagogik diagnostika va korrektsiya jarayonida shaxsning tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari e'tibordan chetda qolsa, u holda maqsadga erishish qiyinlashadi.

O'smirlarning xulq-atvorini o'rganish ijtimoiy guruh hisoblanmish guruh jamoasida olib boriladi. Pedagogik muammoni hal etishda asosiy ahamiyat o'qituvchi va o'quvchi-talaba hamda guruh jamoasi o'rtasidagi munosabatlarga qaratiladi. Bu uchlikda shaxsiy va institutsional (umumijtimoiy) talablar va ehtiyojlar jarayoni aks etadi.¹

Bugungi kunda xulq-atvordagi umumiy munosabatlarni diagnostika va korrektsiya qilish uchun yagona nazariya mavjud bo'lmasa-da, o'spirinlar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni quyidagi xususiy komplekslar orqali aniqlash mumkin:

- 1) guruhiiy normalar;
- 2) guruhiiy tarkib;
- 3) guruhdagi munosabatlar.

Keyingilari o'z navbatida rasmiy va norasmiy kabi guruhlarga bo'linishi mumkin. Rasmiy guruh pedagog tomonidan nazorat ostiga olingan ta'lim-tarbiya maqsadlariga xizmat ko'rsatsa, noformal muhitda, pedagog aralashuvisiz turli jarayonlar kechishi mumkin. Bunda do'stlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, mehnatsevarlik bilan birga o'jarlik, yolg'onchilik subutsizlik kabi xislatlar ham shakllanishi hech gap emas. Ammo shu narsani ta'kidlash joizki, noformal guruhlarning paydo bo'lishi-tabiiy hodisa, chunki o'quvchi-talaba o'zining ma'lum jamoaga taalluqliligi, o'z xohish-irodasini namoyon qila oladigan guruhga aloqador ekanligi shukuhi bilan yashashi zarur.

O'smir shaxsining xulqidagi nuqsonlarini korrektsiyalashda mavjud pedagogik muammo to'g'ri baholanishi tarbiyaviy ta'sir kuchini yuqori pog'onpgp ko'taradi. Ko'p hollarda shaxsning uni o'rab turgan atrof-muhitga nisbatan munosabati, boshqa kishilar bilan munosabatga kirisha olishi, xulqi, jamoat joylarida o'zini tutishi kabi umuminsoniy qadryatlarni o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lganko'nikmalarni egallashi ularda maslak, manfaat, munosabat, qadriyat, intizom, dunyoqarash, xavfsizlik (mehnat xavfsizligi) kabi emotsional holatlardan kelib chiqishi mumkin. SHu jihatdan, o'sib kelayotgan yosh avlodning qiziqishlari, mayllari, jinsiy tafovutlari, hududiy kelib chiqishiga qarab, darsdan bo'sh paytlarida turli to'garaklarga, klublarga, sport sektsiyalariga jalb etish o'ta foydali. CHunki bunday jamoalarda o'spirinlarda ijtimoiy faollik, kirishimlilik, xushmuomalalik, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari

¹G'oziev E.F. "Psixologiya". Toshkent 1994.

shakllantiriladi va takomillashadi, ularda fanlarga nisbatan motivatsiya yaratishga imkoniyat yaratiladi, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga imkoniyat paydo bo'ladi. Bunday jamoalarda yoshlar tafakkurini hayotiy faktlar bilan boyitish imkoniyati kengayadi, o'smirlarda mantiqiy tafakkur rivojlantiriladi.

Ta'lim tizimida muammoli o'qitishni to'g'ri tashkillashtirish ham o'quvchilarning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, taqdim qilinayotgan o'quv materialida berilgan axborot ustida amallar bajarilib, undagi muammo echimini topishga harakat qilish, izlanayotgan miqdor o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash yoshlarning mushohada qilish qobiliyatini o'stiradi, uning axloqiy kategoriyalarni tez ilg'ab olishiga zamin yaratadi. SHu munosabat bilan taqdim qilinayotgan o'quv materialini to'rt qismga bo'lish mumkin:

1. O'quv materialining tarbiyaviy xarakterga molikligi.
2. Undagi axborotlarning ta'sir kuchi.
3. Echiminitopish zarur bo'lgan muammoning qo'yilishi.
4. O'qituvchi mahorati va guruh bilan konformligi (kirishuvchanligi).

Yuqorida keltirilgan barcha dalillar taqdim qilinayotgan o'quv materialiga va o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning mohiyatiga jiddiy e'tibor bilan qarash kerakligini ko'rsatadi.

Mavzudan kelib chiqib voyaga yetmagan o'smirlarning psixologik xususiyatlarini or'ngangan holda mahallalarda voyaga etmaganlar bilan ishlash inspektorlari tomonidan doimiy nazoratda bo'lishlarini va ularning ish jarayonlari bilan tanishib chiqdik. O'smirlik davriga 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalar ya'ni 5-sinfdan 9-sinfgacha va KXK, ALlarning I-bosqich talabalari kiradi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida turli nizolarning kelib chiqish sabablarini, turli jinoyatlarning sodir etilishi o'rganishda va ularning kelib chiqish sabablari va oldini olishda, nafaqat ota-ona, maktab jamoasi balki mahallalarda faoliyat yurituvchi pedagog tarbiyachi va inspektorlar ish olib borishadi.

O'smir yoshlar va voyaga yetmaganlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni ommaviy sportga jalb etish, huquqbuzarlikka moyil va ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar hamda

farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar o'rtasida tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni olib borish maqsadida fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari tarkibiga pedagog-tarbiyachi lavozimining kiritilishi yoshlarga qaratilgan barcha ishlar Davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Tarbiyalanib kelayotgan o'smirlarning bilish jarayonlari psixologik xususiyatlari ham rivojlangan bo'lib, ular ruhiy holatida buzilishlar uchraydi. Do'stlar o'rtasidagi arizmas kelishmovchilik, ota-ona va farzand o'rtasidagi tushunmovchilik, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi muammoli vaziyatlar nizolarning kelib chiqishiga va ularni yoki to'g'ri hal etilishi, yoki chuqurlashib ildiz olib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Maktab ota-ona, mahalla hamkorligi mustahkam bo'lsa bunday nizoli vaziyatlarning kelib chiqishi kamayadi va uning echimini topish oson kechadi. Shularni hisobga olgan holda mahallalarda voyaga etmaganlar bilan ishlash komissiyalari tuzilgan bo'lib, ularning tarkibiga mahalla nozirlari, maktab rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'ini raisi, tajribali o'qituvchi, sport murabbiylari va mahalla faollari a'zo etib kiritilgan. Mavzudan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun maktabning yuqori sinf o'quvchilari, voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari bilan hamkorlikda izlanish olib bordik. Maktabda o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy fikr so'rovnomasi o'tkazildi. Uning natijasiga ko'ra 8- sinf o'quvchilardan 130 nafari qatnashdi.

№		O'quvchilar soni			Yuqori				O'rta				Past			
		jam i	o'g'i l	qi z	O'g'il		Qiz		O'g'il		Qiz		O'g'il		Qiz	
					son i	%	son i	%	son i	%	son i	%	son i	%	son i	%
1	Oila	123	66	57	34		35		30		20		2		2	
2	Maktab	123	66	57	44		37		22		20		-		-	
3	Tengdoshlari	123	66	57	40		30		26		27		-		-	
4	Suitsid	123	66	57	20		22		40		30		6		5	
5	Ommaviy axborot vositalari	123	66	57	34		32		32		25		-		-	
6	Ijtimoiy fikr	123	66	57	40		32		25		23		1		2	
7	O'z-o'ziga	123	66	57	41		34		24		21		1		2	

	baho																
--	------	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

So'rovnoma natijalariga ko'ra osmirlarning ijtimoiylashuviga oila, maktab, tengdoshlar ta'siri 62 nafar o'quvchini tashkil etadi. OAV ta'siri 66 nafar o'quvchini tashkil etadi. O'smirlarni o'z-o'ziga baho berishi 70 nafar o'quvchi, va suitsid holga tushishi esa 42 nafar o'quvchini tashkil etdi. Xulosa qilib aytganda ijtimoiy fikr so'rovnomasi o'smirlar o'rtasida ziddiyatlarni paydo bo'lishi ularni hal etish bo'yicha o'smirlarni mavjud imkoniyatlarni, bilimlarini aniqlashga yordam berdi.

Jizzax shahar IIB XOOB Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining 2012 yil 12 oylik hisoboti

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	2012
1	Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, undan	21
1.1.	Qasddan odam o'ldirish	
1.2.	Tan jarohat etkazish	4
1.3.	O'g'ir tan jarohat etkazish	3
1.4.	Bosqinchilik	
1.5.	Talonchilik	3
1.6.	Bezorilik	2
1.7.	Giyohnadlik	
1.8.	O'g'rilik	7
1.9.	Boshqa jinoyatlar	2
2	Jinoyatda ishtirok etgan voyaga yetmaganlar	25
2. "a"	Ulardan qiz bolalar	3
2.1.	Oliy o'quv yurti talabalari	

2.2.	Kasb-hunar ta'lim muassasalari, litsey o'quvchilari	17
2.3.	Maktab o'quvchilari	3
32.4.	Ishlaydiganlar	
2.5.	O'qimaydiganlar	5
2.6.	Mast holda sodir etilgan jinoyatlar, ulardan	-
2.6.1.	Spirтли ichimlik ta'sirida	-
2.6.2.	Giyohvand moddalari ta'sirida	-
2.6.3.	Toksin moddalari ta'sirida	-
3	O'qituvchi professorlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar	-
3.1.	Oliy o'quv yurtlari professorlari	-
3.2.	Kasb-hunar ta'lim muassasasi o'qituvchilari	-
3.3.	Umummaktab o'qituvchilari	-
4	Profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar	1
5	Jarima qilingan voyaga yetmaganlar	6
6	Shartli hukm qilinganlar	2
7	Axloq tuzatish ishalriga hukm qilinganlar	1
8	Ozodlikdan maxrum qilinganlar	
9	Boshqa ta'sir choralari ko'rilganlar	6
10	Sodir etilgan jinoyatlar to'g'risida o'tkazilgan xizmat tekshiruvlar	11
11	VEUN va XPG xodimlari tomonidan ochilgan jinoyatlar	-
12	VEIXYOKM xodimlari tomonidan ochilgan jinoyatlar	-
13	Hisobot boshida turgan voyaga yetmaganlar	50
14	Hisobot davrida hisobga olingan	46
15	Hisobot davrida hisobdan chiqarilganlar	44
16	Hisobot oxirida hisobda turganlar	52
16 "a"	Ulardan qiz bolalar	8
16.1.1.	Umumta'lim maktablari o'quvchilari	22

16.1.2.	Kasb-hunar ta'lim muassasslari o'quvchilari	25
16.1.3.	Oliy o'quv yurti talabalari	-
16.1.4.	O'qimaydigan, ishlamaydigan	5
16.1.5.	Ishlamaydigan	-
16.2.1.	7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lganlar	11
16.2.2.	14 yoshdan 16 yoshgacha	23
16.2.3.	16 yoshdan 18 yoshgacha	18
16.3.1.	Jinoyat sodir etganligi uchun	27
16.3.2.	Huquqbuzarlik sodir etganligi uchun	18
16.3.3.	Boshqa sabablar bilan	7
17	Hisob boshida hisobda turgan farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar	58
18	Hisob davrida hisobdan chiqarilgan farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar	42
19	Hisob davrida hisobga olingan farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar	46
19.1.	Hisob davrida turganlar	62
20	VEUN va XP xizmat xonasiga keltirganlar	275
21	VEIXYOKMga joylashtirilganlar	74
“21”	Ulardan qiz bolalar	19
21.1.1.	Umum maktab o'quvchilari	36
21.1.2.	Kasb-hunar ta'lim muassasalar o'quvchi	21
21.1.3.	O'qimaydigan, ishlamaydigan	17
21.1.4.	Ishlamaydigan	-
21.2.1.	7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lganlar	24
21.2.2.	14 yoshdan 16 yoshgacha	23
21.2.3.	16 yoshdan 18 yoshgacha	27
22	Muntazam ravishda oiladan va maxsus o'quv tarbiya muassasalaridan o'zboshimchalik bilan qochib ketganlar	7

23	O`tkazilgan uchrashuvlar, davra suxbatlari va bevosita muloqotlar	148
24	Umum ta`lim maktablarida	69
25	Kasb-hunar ta`lim muassasalarida	54
26	Oliy o`quv yurtlarida	8
27	Mahalla va jamoatchilik o`rtasida	17
28	Ommaviy axborot vositalari orqali targ`ibot qilish ishlari	18
29	Televideniyada	8
30	Radioda	4
31	Ro`znomalarda	6

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki voyaga etmaganlar o`rtasida nizolarni hal etishni hamda jinoyatchilikni sodir etmaslikni ularga o`rgatish kerak. Voyaga yetmaganlar o`rtasida nizoli vaziyatlar har doim paydo bo`ladi, faqat uni ijobiy hal etilgan yondashishni bilishimiz kerak. Chunki ular o`smir yoshidagi o`quvchilar bo`lib, o`tish davrini og`ir damlarini boshdan o`tkazayotgan davrdir. Milliy an`analarimizga, maqollarga asosan: "Kattani hurmat qil, kichikni izzat", "Odobli bola elga manzur", "Ustoz otangdek ulug'", "Har qilsang hurmat ko`rasan", "Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi" kabi ibratli so`zlarga suyangan holda nizolarni hal etishni, ba`zan yon berishni o`rganishni farzand go`dakligidan oila dargohida o`rgatish lozim. "Qush uyasida ko`rganini qiladi" deganlaridek ibratli oilaning farzandlari ham ibratli bo`lishi kerak. Odob-axloq masalalari, shuningdek, urf-odatlarimiz, milliy an`analarimiz, qadryatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning pand-nasihatlarini, noyob asarlariga amal qilsak, voyaga etmaganlar o`rtasida salbiy xulq-atvor ko`rinishlari kuzatilmaydi.

Oila mahalla, maktab hamkorligi mustahkam va uzviy bo`lishi lozim. O`quv muassasalari atrofida Internet kafelarning joylashishi ham o`smirlar xulqiga salbiy ta`sir etish tomonlari ham yo`q emas. Internetdan foydalanishni bilish elektron pochta orqali ma`lumot berish va qabul qilish xozirgi zamon talablaridan biri. Lekin shunday web saytlar ham borki unda zo`ravonlik,

norasmiy guruhlarning ishlari haqida ma'lumotlat va o'smirlar uchun taqiqlangan xabarlar ham uchraydi. Xozirgi kunda internet kafelarda shug'ullanuvchilarning 95% voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Xozir yoshlar qaysi internet kafeda, nima bilan shug'ullanayotganini nazorat qilish qiyin. O'smirlar Internet kafega bormasalar ham ota-onalari olib bergan qimmatbaho rusumdagi uyali telefon apparatlaridan ham foydalanishlari mumkin. To'g'ri ota-ona farzandlarini qaerda ekanliklari haqida xabardor bo'lishi uchun uyali telefon apparatlari olib berishadi. Lekin uni qanday ishlatayotganini nazorat qilishi sust. Xulosa qilib aytganda voyaga etmaganlar o'rtasida turli noxush holatlarning sodir bo'lishini oldini olish, ular bilan ehtiyotkorlik bilan ishlash, turli nizolarni kelib chiqishi va ularni bartaraf etishni yo'lga qo'yish kattalarning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Bola tarbiyasi oiladan, bolalar bog'chasidan boshlanadi. Ularning ongiga milliy axloq-odob, yurtga muhabbat, Vatanga sadoqat tuyg'ularini singdirishni aynan shu davrdan boshlash kerak. Bu jarayon maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida davom ettirilib, shu yo'l bilan takomillashtirib boriladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bunga mas'ul davlat idoralari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 2000 yil 21 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida» 360-sonli qaror qabul qilindi. Mazkur qaror voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni yangi bosqichga ko'tarishga hamda mutasaddi idoralarning tashabbuskorlik bilan faoliyat ko'rsatishiga huquqiy zamin yaratdi.

Yurtimizda voyaga yetmaganlarni ommaviy sportga jalb qilish borasida ham aniq tizim yaratildi. Jumladan, keyingi to'rt yilda 244 ta zamonaviy sport-sog'lomlashtirish majmuasi bunyod etilib, ularga 113 ming nafarga yaqin o'g'il qiz jalb qilindi.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning ma'naviy saviyasini yuksaltirishda zamonaviy imkoniyatlardan unumli foydalanish masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, komissiya sa'y-harakatlari bilan o'quv muassasalarida axloqiy mavzudagi telefilmlar namoyishi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, komissiya tashabbusi bilan o'smirlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan hujjatli filmlar yaratilib, o'quv muassasalariga tarqatilmoqda.

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash yuzasidan hududiy komissiyalar bilan yaqin

hamkorlikda onalik va bolalikni muhofaza etish, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish, jismoniy imkoniyati cheklangan va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj guruhlariga kiradigan bolalarni aniqlab, ularning tarbiyasi bilan band bo'lishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada o'tkazilgan tadbirlar natijasida o'tgan yili voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va o'z joniga qasd qilish kabi holatlarda sezilarli pasayish yuz berdi.

«Yoshlar yili» Davlat dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish, voyaga yetmaganlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risida qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Hududiy komissiyalar tomonidan ham bu borada ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent shahar komissiyasi va prokuraturasi tashabbusi bilan joriy yilning 9—10 iyul kunlari Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish maqsadida «Yoshlar mehnat yarmarkasi» tashkil qilindi. Mazkur mehnat yarmarkasiga 21 mingdan ziyod yoshlar jalb qilinib, ularning 3 ming nafari ishga joylashtirildi. Bunday tadbirlar Toshkent, Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida ham o'tkazildi. Farg'ona shahar prokuraturasi va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi tashabbusi bilan 1 iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan kam ta'minlangan oilalar va profilaktika hisobida turgan tarbiyasi og'ir bolalar o'rtasida «Biz tinchliksevar yurt farzandlarimiz» shiori ostida sport anjumanlari o'tkazildi. Namangan viloyati Kosonsoy tumanida 40 nafar profilaktika hisobida turgan voyaga etmaganlar uchun «Umid» harbiy-sport sog'lomlashtirish oromgohi tashkil qilinib, hozirda u samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Joriy yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasi tashabbusi bilan 18 nafar, Qashqadaryo viloyatida 30 nafar, Xorazm viloyatida 140 nafar, Navoiy viloyatida 150 nafar, Namangan viloyatida 660 nafar, Sirdaryo viloyatida 950

nafardan ziyod kam ta'minlangan oila farzandlari va nogiron bolalar respublikamizning so'lim go'shalarida maroqli hordiq chiqarishdi.

Ushbu takliflarning asosiylaridan biri, bu jinoyat va huquqbuzarlik sodir qilgan bolalarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilishdan ko'ra muqobil jazo yoki boshqa tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash amaliyotiga ko'proq e'tibor berilmoqda. Shuningdek, hududiy komissiyalar tomonidan ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalar haqidagi ma'lumotlar banki yaratilgani mazkur toifadagi bolalarni sog'lomlashtirish, ularga ta'lim-tarbiya berish, moddiy va psixologik yordam ko'rsatish dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashmoqda.

Bundan tashqari, maxsuslashtirilgan markazlarni zamonaviy jihozlash, hujjatlarni qayd etish tizimini joriy qilish va ta'lim dasturlari sifatini oshirish orqali bolalarni saqlash sharoitlari yaxshilandi. Jumladan, Buxoro, Nukus, Toshkent, Guliston va Samarqand shaharlaridagi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari kapital ta'mirlanib, ularda ijtimoiy reabilitatsiya jihozlari o'rnatildi.

Voyaga yetmaganlarni balog'at yoshiga etgunga qadar tarbiyalash bilan birgalikda ilm-fan va kasb-hunarga qiziqtirib borish zarur. Yosh avlodning jismonan sog'lom, aqlan etuk va ma'nan barkamol bo'lib voyaga etishishi jamiyatda ular huquqlarining qay darajada muhofaza qilinishiga ham bog'liq. Zero, ular tarbiyasi, faoliyatiga beriladigan e'tibor yurtimizning yangidan-yangi yutuqlariga omil bo'ladi.

Ushbu xulosaga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- ota-onalar yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxslarni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish zarur;
- voyaga yetmaganlarning axloqiy va huquqiy tarbiyasida muammolarni bilish shart;

- voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi kamchiliklarni o'z vaqtida o'rganib, oldini olish;

- o'smirni noo'rin yoki bilib-bilmasdan jazolanishini oldini olish kerak;

- bolalarni ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishiga sharoit yaratib berish lozim;

- bolani ortiqcha erkalatib yuborish (aytgani aytgan va degani degan holga kelib qolishi) ni oldini olish zarur;

- oilaviy muammolarning mavjudligi (oilaviy muhitning yaxshi emasligi, ishsizlik, ajralishlar, ko'chib yurish, yangi sharoitga o'smirni moslasha olmasligi, kasallik va iqtisodiy nochorlik kabilar) va bu muammolarni oqilona hal etish zarur;

- voyaga yetmagan shaxsning himoyasizligi, ya'ni uni eshitmaslik yoki tushinishni istamaslik, muammolar echimiga qaratilgan to'g'ri yo'lni ko'rsatmaslik va yordam bermaslik kabi holatlarni oldini olish zarur;

- voyaga yetmagan shaxsni tengqurlari tomonidan kamsitilishi, tahqirlanishi, jismoniy choralar ko'rilishi va bunday muammoli holatlarni bartaraf etish zarur;

- oila, o'quv muassasasi va mahalla hamkorligining pedagogik-psixologik talablar darajasiga olib chiqish zarur;

- bolani ortiqcha tergash, nasihatgo'ylik qilish, har xil og'ir jismoniy ishlarga jalb qilish oqibatida mehnatdan bezdirish, bolani yosh, jins va individual-ruhiy xususiyatlarini inobatga olish zarur;

- nazoratsizlik oqibatida voyaga yetmaganlarni jinoyatni o'tab qaytganlar yoki jinoiy tajribaga ega bo'lganlar muhitiga tushib qolishini oldini olish zarur;

- tarbiyasi qiyin o'smirlarning sinf jamoasi bilan bo'ladigan munosabatlarini sog'lomlashtirish voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik xulqining oldini olishda muhim omil sifatida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov. “Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent: Sharq nashriyat manbaa konserni. 1997.
2. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch. Toshkent. 2008.
3. I.A. Karimov. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo`llari va choralari. Toshkent. 2009.
4. I.A. Karimov. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisi. 2010 yil.
5. I.A. Karimov “Ozbekiston mustaqilikka erishish ostonasida”. Toshkent. 2011.
6. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O`zbekiston. 1997.
7. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
8. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005
9. Ansupov A. Ya., Shipilov A.I. Konfliktologiya, M.: “Izd-vo” 1999
10. Vorojeykin I.E., Kibanov A.Ya., Zaxarov D.K. Konfliktologiya, Uchebnik dlya vuzov. M.: “Izd-vo” 2004.
11. Vozrastnaya psixologiya: ot molodosti do starosti: Uchebnoe posobie dlya studentov i prepodavateley ucheb.zaved /M.V Gamezo, V.S Gerasimova, G.G Gorelova, L.I Orlova.M.,1999.
12. Gromova O. N. Konfliktologiya. M.: “Izd-vo” 1993.
13. G`oziev E.F. “Psixologiya”. Toshkent 1994.
14. Davletshin M.G. Общaya psixologiya T. 2002.

15. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O`quv metodik qo`llanma TDPU. 2004.
16. Zaysev A. K. Sosialnyy konflikt na predpriyatii. — Kaluga: KISI. 1999.
17. Zdravomyslov A. G. Sosiologiya konflikta. M.: “Izd-vo” 1995 g.
18. Karimova V.M. Psixologiya. T.2004 y.
19. Raxmatullaev. M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.— 2001.
20. Stepanov E.I. Sovremennaya konfliktologiya. Moskva 2008
21. To`ychieva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar echimi. Manual. - T.: 2008
22. Utkin A. Ya. Konflikt: teoriya i praktika. M. “Izd-vo” 1998 g.
23. Xasan B.I. Konstruktivnaya psixologiya konflikta. SPb., M. “Izd-vo” 2003.
24. Felshteyn D.I «Usmir davri tarakkiyoti». M.MGU, 1996 yil

Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:

1. www.bilimdon.uz,
2. www.de.uz,
3. www.tatu..uz

Sinf rahbari bilan suhbat

1. O`smirning xulqidagi nuqsonlarni (nuqsonlar aniq ko`rsatilishi kerak) korrektsiyalashda qanday qiyinchiliklarga uchramoqdasiz?
2. O`smirning o`quv maskanida va uydagi intizomlilik darajasi.
3. O`zlashtirish darajasi.
4. Qaysi aniq dalillar o`smirning xulqidagi nuqsonlardan dalolat beradi.
5. Xulqdagi nuqsonlarni korrektsiyalashda o`smirga nisbatan qanday choralar ko`rildi va uning natijalari qanday?
6. O`smirning uydagi yashash (turmush) tarzi.

O`smir bilan suhbat

1. Qaysi fanlar sizni qiziqtiradi?
2. Qanday asarlarni o`qishga qiziqasiz?
3. O`rtoqlaringiz to`g`risida ma`lumot bering?
4. O`quv yurtidagi xulqingizdan qoniqasizmi?
5. Jamoada qanday ishlarni bajarasiz? Uning natijalari tevarak-atrofdagilarni qoniqtiradimi?
6. Uyda bajaradigan eng sevimli mashg`ulotingiz?
7. Hayotda eng asosiy narsa nima deb o`ylaysiz?
8. Ota-onangizga munosabatingiz qanday?
9. Kattalarga bo`lgan munosabatingiz to`g`risida tafsilot bering.

O`smir to`g`risida fan o`qituvchilari bilan o`tkaziladigan savol-javob

1. Sizning faningiz bo`yicha aynan shu o`smirning o`zlashtirish darajasi qanday?
 2. Ushbu o`smirning xulq-atvori to`g`risida nima deya olasiz?
 3. Intizomga zid xatti-harakatlari uchun qanday chora-tadbirlarni qo`llagansiz?
- Bu borada qanday tavsiyalar bera olasiz?

4. O`qish va mehnatdagi imkoniyati va qobiliyati to`g`risidagi fikringizni bildiring.

O`smir to`g`risida o`rtoqlari bilan o`tkaziladigan suhbat

1. Do`stlashginingizga ancha bo`ldimi?
2. Birgalikda bajaradigan eng sevimli mashg`ulotingiz?
3. O`rtog`ingizning qaysi xislatlarini yoqtirasiz?
4. O`rtog`ingizdagi qaysi xislatlar sizga qmaydi?
5. O`rtog`ingiz yordamga muhtoj pati unga yordam qo`lini cho`zasizmi?
6. Kelgusida rejalariniz.

O`smir to`g`risida sinf sardori bilan o`tkaziladigan suhbat

1. Sinfdoshingiz to`g`risida fikringiz?
2. Sinf jamoasi bilan kelishuvchanlik darajasi qanday?
3. Sinfdagi o`rtoqlariga bo`lgan munosabat.
4. YOrdamga muhtoj paytlarda guruh jamoasi va shaxsan o`zingiz unga qanday yordam berasiz?
5. Sinfdoshingizning jamoa hayotidagi ishtiroki?
6. Sinfdoshingiz o`zgalarga o`mak bo`la oladimi?

SHunday qilib, suhbat natijasida qo`lga kiritilgan xulosalar, barcha jamlangan ma`lumotlar, o`quv maskani, oila, mahalladan olingan tavsiyalar o`smirlarning xulqidagi nuqsonlarni korrektsiyalashda qulay uslublardan foydalanishga zamin yaratadi.

O`smir xulqidagi nuqsonlar: yolg`onchilik, surbetlik, janjalkashlik, agressivlik kabi illatlarni korrektsiyalash uchun quyidagilarga rioya qilish zarur:

- pedagogik muammoning paydo bo`lish sabablarini aniqlash;
- ta`sir kuchini o`tkazadigan profilaktik tadbirlar metodikasi bilan tanish bo`lish;
- guruh jamoasida o`qituvchi va o`quvchi orasida bir-biriga hurmat muhitini vujudga keltira olish;
- oilada sog`lom muhitni vujudga keltirish uchun ota-onalar bilan ham pedagogik tadbirlarni olib borish va h.k.